IJTIMOIY-IQTISODIY GAZETA

# O‘ZBEKISTON BUNYODKORI

# СТРОИТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА

2023-yil 24-noyabr
24 ноября 2023 года



·1928·

"O‘ZSHAHARSOZLIK LITI"

## KECHA, BUGUN, ERTAGA

Institutning **95 yilligiga** bag‘ishlangan maxsus son

## ВЧЕРА, СЕГОДНЯ, ЗАВТРА

Спецномер посвящается **95-летию** института

·1928·

# "O'ZSHAHARSOZLIK LITI"

## KECHA, BUGUN, ERTAGA

"O'zbekiston bunyodkori" gazetasining ushbu maxsus soni "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasining 95 yilligiga bag'ishlanadi.

Gazetaning ushbu sonida institut tashkil topgan dastlabki yillardan boshlab, O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik yillarida hamda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan davlat ahamiyatiga molik loyihalash va qurilish ishlari, korxonada faoliyat ko'rsatgan va ko'rsatayotgan taniqli arxitektorlar, muhandislar va mutaxassislar, ishlab chiqilgan va ishlab chiqilayotgan qurilish loyihalari, qurilish obyektlari, inshootlar, ijtimoiy-maishiy binolar va aholi turar-joylari, shuningdek, korxona tarkibidagi boshqarmalar, bo'limlar va ustaxonalar faoliyati yoritilgan.

O'ylaymizki, ushbu gazeta nafaqat ko'p yillik tajribaga ega institut faoliyatida, balki arxitektura va qurilish sohasida mehnat qilayotgan kadrlarga tarixiy ma'lumot va ibrat namunasi, shuningdek, dunyo miqyosida tanilayotgan jonajon O'zbekistonimizning ravnaqi va bunyodkorligi yo'lida xalqaro hamkorlik aloqalarini o'rnatishda ham muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

## ВЧЕРА, СЕГОДНЯ, ЗАВТРА

Данный спецномер газеты "O'zbekiston bunyodkori", посвящается юбилейной дате – 95-летию образования государственного учреждения "Узшахарсозлик ЛИТИ".

Спецвыпуск содержит статьи и информационно-справочные материалы о достижениях института с момента образования и пути его развития. На страницах юбилейного выпуска представлены результаты работы известных архитекторов, инженеров и специалистов отрасли, выполненные за годы независимости, архитектурно-строительные проекты государственного масштаба, воплотившиеся в жизнь в период становления Нового Узбекистана, а также слаженной работой управлений, подразделений и мастерских института по разработке строительных проектов, объектов социально-бытового фонда, жилищного строительства и др.

Мы искренне надеемся, что данный юбилейный номер станет памятным не только для сотрудников института, но и для тех, кто собирается связать свою жизнь с архитектурой. А главное, послужит источником для вдохновения и созидания.



"Jonajon O'zbekistonimizning yangi qiyofasini barpo etish, vatanimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash, hayotimizni yanada obod va farovon etishda mohir quruvchi va muhandislar, usta va me'morlar, loyihachi va pudratchi tashkilotlar vakillari – ming-minglab bunyodkor insonlarning oliyjanob mehnatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi".

**Sh. MIRZIYOYEV,**
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

"Поистине трудно переоценить значение вашего – многих тысяч умелых строителей и инженеров, архитекторов и мастеров, представителей проектных и подрядных организаций – благородного труда в создании нового облика родного Узбекистана, развитии и благоустройстве страны, обеспечении благополучия нашей жизни".

**Ш. МИРЗИЁЕВ,**
**Президент Республики Узбекистан**



# Salkam bir asrlik shonli yo'l

**Bobir ELMURADOV,**
"O'zshaharsozlikLITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasi Bosh direktori

Bu yil "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasi o'zining 95 yilligini nishonlaydi. Institutning salkam bir asrlik faoliyati davomida uning mutaxassislari mamlakatimizdagi ko'plab noyob arxitektura-qurilish obyektlarini yaratishda ishtirok etishdi. Bugungi kunda ham institut ilmiy loyihalash yo'nalishi, ijtimoiy soha ob'yektlarini qurish va foydalanishga topshirish borasida yetakchi tashkilotlardan biri hisoblanadi. Ish ko'lamining keng qamrovi va ulkan ilmiy salohiyat butun qurilish majmuyiga xizmat ko'rsatish imkonini yaratmoqda. Institutning asosiy raqobat ustunligi – an'anaviy milliy ilmiy maktabni zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog'lash va loyiha ishlarini yakunigacha bajarishdan iborat.

# На рубеже столетнего юбилея

**Бобир Элмурадов,**
Генеральный директор
ГУ ГПИ "Узшахарсозлик ЛИТИ"

В этом году ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" празднует свой 95-летний юбилей. Почти вековой путь института отмечен участием его специалистов в создании многих уникальных архитектурно-строительных объектов нашей страны. Сегодня предприятие продолжает удерживать лидирующие позиции в области научного сопровождения проектирования, строительства и эксплуатации объектов социальной инфраструктуры. Широкий диапазон направлений работы и огромный научный потенциал позволяют оказывать системные услуги для всего строительного комплекса. Важным конкурентным преимуществом института является гармоничное сочетание и соединение

Amaldagi an'analar, pishiq professional jamoa, ishlarga ijodiy yondashuv va deyarli bir asrlik tajriba "O'zshaharsozlik LITI" davlat muassasasiga oldinga ildam qadam bosish va qat'iyat bilan kelajakka qarash imkonini beradi.

"O'zshaharsozlik LITI" davlat muassasasi dastavval 1928-yil 15-noyabrda "O'zgosproyekt" instituti nomi bilan tashkil etilgan bo'lib, uning markaziy idorasi Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatgan. 1930-yilda korxona idorasi Toshkent shahriga ko'chirilganidan so'ng institut poytaxtda o'z faoliyatini davom ettirgan. Institut tashkil topgan dastlabki yillardan uning tajribali mutaxassislari tomonidan O'zbekiston Respublikasi miqyosida ko'plab e'tiborga molik qurilish loyihalari amalga oshirilgan.

Jumladan, Samarqand shahridagi O'zSSR maslahatlar uyi, hukumat uyi binosi, "O'zNIIPgradostroitelstva" binosi, keyinchalik Toshkent shahridagi "Turkiston" mehmonxonasi, "Panorama" kinoteatri, "O'zgosproyekt" binosi, "Inturist" mehmonxonasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi "Musiqali drama teatri" va boshqa ko'plab obyektlarning loyihalari ishlab chiqilgan.

традиционных научных школ с современными технологиями и выполнением проектных работ под ключ.

Сложившиеся традиции, крепкий коллектив профессионалов, творческий подход к работе и почти вековой опыт позволяют ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" уверенно двигаться вперёд и смело смотреть в будущее.

ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" образовано 15 ноября 1928 года, тогда оно называлось "Узпланпроект" и его центральное управление функционировало в городе Самарканде.

После переезда в 1930 году, институт продолжил свою деятельность в столице. С первых лет становления его специалистами осуществлено множество заслуживающих внимание строительных проектов по всей республике. В частности, были разработаны десятки проектов, среди которых Самаркандский городской Дом советов УзССР, здание правительства города Самарканда, здание Самаркандского "УзНИИПградостроительства", впоследствии гостиницы "Туркестан" в городе Ташкенте, кинотеатра "Панорама",



СССР

СОБРАНИЕ УЗАКОНЕНИЙ и РАСПОРЯЖЕНИЙ

Рабочего и Декханского Правительства

УЗБЕКСКОЙ СОВЕТСКОЙ СОЦИАЛИСТИЧЕСКОЙ РЕСПУБЛИКИ.

Издаваемое Управлением Делами Совета Народных Комиссаров УзССР

ПРОТОКОЛ № 68

Заседания Совета Народных Комиссаров Узбекской Советской Социалистической Республики

12-го ноября 1928 года.

Председательствовал - ФАЙЗУЛЛА ХОДЖАЕВ

ПРИСУТСТВОВАЛИ с правом РЕШАЮЩЕГО голоса: [illegible]

с правом СОВЕЩАТЕЛЬНОГО голоса: [illegible]

СЕКРЕТАРЬ - Г.И. ПЕТРОВ.

| Слушали: | Постановили: |
| --- | --- |
| 20. О создании Государственного проектировочного бюро при ВСНХ УзССР. [illegible] | 20. 1/ В связи с ростом строительства и для обеспечения доброкачественности проектировок и смет строительства, - создать при ВСНХ УзССР "Государственное Проектировочное Бюро", - на хозрасчете и под руководством ВСНХ. 2/ Поручить ПК в 2-х недельный срок выработать положение и структуру "Государственного Проектировочного Бюро" УЗГОСПРОЭКТ. |

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ Совета Народных Комиссаров УзССР /Файзулла Ходжаев/

УПРАВЛЯЮЩИЙ ДЕЛАМИ Совета Народных Комиссаров УзССР /Мир-Хамид-Ходжаев/

СЕКРЕТАРЬ Совета Народных Комиссаров УзССР /Г.И.Петров/

15/XI-28г.

1934-yilda "O'zgosproyekt" instituti loyihasi bo'yicha Buxoro viloyatida 25 ta xonadondan iborat aholi yashash punktlarining, shuningdek, 1939-yilda aholi uchun ilk bor kamqavatli turar-joy binolarining loyihalash ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, tajribali arxitektor A. Sidorov loyihasi bo'yicha Toshkent shahridagi Shota Rustaveli ko'chasida birinchi 4 qavatli turar-joy binolari qurilgan. "Vatan" kinoteatri, hukumat "Maslahat uyi" va o'ndan ortiq markaziy loyihalar ishlab chiqilgan. Bugungi kunda ular shaharsozlik maktabining asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Institutda shaharsozlik maktabining asoschilari bo'lgan – M. Bulatov, L. Balovnev, T. Kalinovskaya, B. Novoselov, V. Zemlyanitsin, B. Leshinskiy, Sh. Faxriddinov, L. Karash, L. Boychenko, A. Bushuyev, A. Vanke, N. Varaksin, V. Ozerov, E. Gofman, A. Sevastyanov, M. Malibekov kabi yetuk, tajribali arxitektor va muhandislar bugunga kelib mazkur sohaning faxriga aylandilar. Ayni ikkinchi jahon urushi boshlangan bir paytda, institut mutaxassislari Vatan himoyasi uchun birinchilar qatorida jangga otlandilar. Jumladan, institut xodimlaridan A. Arivadze, A. Balaxonav, B. Yermolenko, B. Ilinskiy, V. Novoselov,

здание "Узгоспроекта" в столице, гостиницы "Интурист", здание "Музыкального театра драмы" города Нукуса Республики Каракалпакстан и др.

В 1934 году в нашей стране по проекту института "Узгоспроект" в Бухарской области были возведены 25 жилых объектов, также в 1939 году для нужд населения впервые были выполнены проекты малоэтажных жилых зданий. В частности, по проекту именитого архитектора А. Сидорова в городе Ташкенте на улице Шота Руставели города Ташкента были возведены первые 4-х этажные жилые здания. Были разработаны проекты кинотеатра "Ватан", правительственного "Дома советов" и более десяти центральных проектов. В институте трудились основатели школы градосторительства – такие именитые, опытные архитекторы и инженеры, как М. Булатов, Л. Баловнев, Т. Калиновская, В. Новоселов, В. Землялицин, Б. Лещинский, Ш. Фахриддинов, Л. Караш, Л. Бойченко, А. Бушуев, А. Ванке, Н. Вараксин, В. Озеров, Е. Гофман, А. Севастьянов, В. Березин, Р. Блезэ, Д. Шуваев.

Важно отметить и героические подвиги сотрудников института во время



**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati binosi.**
Loyiha bosh arxitektori: I. Turgunbayev
Loyiha bosh muhandisi: Sh. Zuxriddinov

**Здание Сената Олий Мажлиса Республика Узбекистан.**
Главный архитектор проекта: И. Тургунбаев
Главный инженер проекта: Ш. Зухриддинов

M. Ryazanskiy, D. Stirkas, B. Shitovlar Vatan sarhadlarini fashistlardan tozalashda qahramonlik ko'rsatib, mardona jang qildilar.

Urushdan keyingi yillarda vayron bo'lgan shaharlarni tiklash, o'rniga yangi binolar qurish, aholini turar-joylar bilan ta'minlash masalasi bosh o'ringa chiqdi. Ana shunday qiyin vaziyatlarda shaharsozlik sohasida ayniqsa, turar-joy binolari, maktablar, bog'chalar, maishiy-ijtimoiy binolar va sanoat zonalarini barpo etishga katta e'tibor qaratildi. Ayni shu davrda institutda faoliyat olib borayotgan arxitektorlar – B. Trofimov, I. Merport, I. Rachinskaya, A. Petrosov, S. Rozenblyum, V. Kolomenskiy, muhandislar – V. Ozerov, I. Shaxsuvarov, N. Voinov, V. Demin va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan qurilish loyihalari dolzarb loyihalar qatoridan o'rin oldi. Mamlakatimizda qizg'in bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlari olib borilib, yuzlab qurilish obyektlarining loyihalari ishlab chiqildi. Loyiha mualliflari, soha mutaxassislari O'zbekistonimizning gullab-yashnashi va farovonligi yo'lida tinim bilmay mehnat qildilar.

1972-yilning 1-yanvaridan O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashi qarori bilan "O'zgosproyekt" loyihalash tashkiloti O'zbekiston shaharsozlik ilmiy-tadqiqot loyiha institutiga aylantirildi. Qisqa vaqt ichida amalga oshirilgan shaharsozlik loyihalari asosida poytaxtimiz va respublikamizning boshqa shaharlarida qad ko'targan aholi uy-joylari, dam olish maskanlari, yashil maydonlar, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish binolari institut faxriga aylandi. Jumladan, Toshkent shahridagi "Yoshlar Shodlik uyi", Qarshi shahridagi "Musiqali drama teatri", Samarqand shahridagi viloyat hokimligi binosi, Toshkent shahridagi hukumat shifoxonasi, Lunacharskiy shifoxonasi, Iqtisodiyot universiteti, Markaziy ippodrom, Respublika Ftiziatriya shifoxonasi binolari va boshqa o'nlab obyektlarning qurilishi loyihalari ishlab chiqildi.

Bu loyihalarning ishlab chiqilishida institutning salohiyatli mutaxassislari – I. Kovajenko, A. Kozlov, V. Shterenshis, S. Sutyagin, O. Braverman, R. Bleze, Y. Rubinov, S. Ninburg, M. Malibekov, R. Nosirov, N. Safronova, I. Tabuldji, R. Sharipov va boshqalar faol ishtirok etishgan.

1972-yildan 1996-yilgacha bo'lgan davrda institutning tajribali mutaxassislari – V. Iskrin, I. Yakubov, A. Mamedov, S. Ninburg, Yu. Kovachevich, I. Notkin, S. Sutyagin, F. Sitsina, V. Sorokina, V. Buxvostov, I. Nupreychik, J. Malibekov, A. Aleksandrovich, A. Yakushev, A. Zotov, N. Fokina, G. Kononova, I. Jukovskiy,

Второй мировой войны, они в числе первых отправились воевать с противником. В частности, отважно и героически сражались, показывая образцы военной доблести при освобождении Отечества от фашистов сотрудники института А. Аривадзе, А. Балахонав, Б. Ермоленко, Б. Ильинский, В. Новоселов, М. Рязанский, Д. Стыркас, Б. Шитов. В послевоенные годы первостепенное место занял вопрос восстановления разрушенных городов, возведения на их месте новых зданий, обеспечение населения жильем. В это непростое время в области градостроительства большое внимание было уделено возведению жилых зданий, школ, детских садов, объектов соцкультбыта и промышленных зон.

Именно в этот период разработанные архитекторами – Б. Трофимовым, И. Мерпортом, И. Рачинской, А. Петросовым, С. Розенблюмом, В. Коломенским, инженерами – В. Озеровым, И. Шахсуваровым, Н. Воиновым, В. Деминым и др. строительные проекты, опередили своё время. Были разработаны проекты сотен строительных объектов. Авторы проектов – специалисты отрасли неустанно трудились на пути процветания и благополучия Узбекистана.

Постановлением Совета Министров Узбекской ССР от 1 января 1972 года, проектная организация "Узгоспроект" была реорганизована в научно-исследовательский институт градостроительства Узбекистана. Выросшие на основе разработанных в короткий срок градостроительных проектов в нашей столице и в других городах республики жилые кварталы для населения, дома отдыха, зеленые площади, здания культурно-бытового назначения являются гордостью института.

В частности, строительные проекты "Дома молодежи" в г. Ташкенте, Театр музыкальной драмы в городе Карши, здание областного хокимията в городе Самарканде, здания правительственной поликлиники, больницы им. Луначарского, комплекса Экономического университета, Центрального ипподрома, здания республиканской физиотерапевтической больницы в г. Ташкенте и еще десятки объектов разработаны опытными специалистами института. В разработке данных проектов активное участие принимали ведущие специалисты института – И. Коваженко, А. Козлов, В. Штереншис, С. Сутягин, О. Браверман, Р. Блезэ, Я. Ру-

Y. Gogin, I. Hasanov, B. Magdiyev, E. Sokolova, A. Blinov, B. Saidov, R. Belyalov, Q. Po'latov, K. Sharipov, K. Mo'minov, S. Ningburg, R. Bleze, A. Perederin, A. Azimov, M. Zokirov, B. Miraliyev, I. Li, Q. Zohidov, E. Lenneshmitd, I. Nupreychik, G. Zavyalov, R. Adilov, A. Muslikov, T. Ziyayev, M. Kanavalov, A. Shulepin, A. Kapitsalarning sa'y-harakati bilan Respublika miqyosida yuzlab e'tiborga molik qurilish obyektlari – ko'p qavatli aholi turar-joylari, namunali uylar, maishiy-ijtimoiy binolar, hukumat binolari, bog'lar va maydonlar, madaniyat va san'at saroylarining loyihalari ishlab chiqildi.

1996-yilning 1-yanvarida "O'zgosproyekt" instituti "O'zshaharsozlik LITI" OAJ (ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati)ga aylantirildi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng institut jamoasi tomonidan qurilish loyihalarini yanada mukammal va zamon talablari darajasida ishlab chiqishda tajribali mutaxassislar – S. Morshnev, R. Kim, Ya. Pinxasov, M. Zokirov, Yu. Morduxovich, A. Maxmutov,

бинов, С. Нинбург, М. Малибеков, Р. Носиров, Н. Сафонова, И. Табулджи, Р. Шарипов и др.

В период с 1972 по 1996 годов благодаря стараниям мастеров предприятия – В. Искрина, И. Якубова, А. Мамедова, С. Нинбурга, Ю. Ковачевича, И. Ноткина, С. Сутягина, Ф. Цициной, В. Сорокиной, В. Бухвостова, И. Нупрейчика, Ж. Малибекова, А. Александровича, А. Якушева, А. Зотова, Н. Фокиной, Г. Кононовой, И. Жуковского, Е. Гогина, И. Хасанова, Б. Магдиева, Е. Соколовой, А. Блинова, Б. Саидова, Р. Белялова, К. Пулатова, К. Шарипова, К. Муминова, С. Нингбурга, Р. Блезэ, А. Передерина, А. Азимова, М. Зокирова, Б. Миралиева, И. Ли, Зохидова, Э. Леннешмидта, Г. Завьялова, Р. Адилова, А. Мусликова, Т. Зияева, М. Канавалова, А. Шулепина, А. Капицы были разработаны проекты сотен заслуживающих внимания строительных объектов



**Al-Farg'oniy memorial majmuasi.**
Loyiha bosh arxitektori: R. Salaxutdinov

**Мемориальный комплекс Аль-Фергани.**
Главный архитектор проекта: Р. Салахутдинов




**O'zbekiston Axborot agentligi binosi.**
Loyiha bosh arxitektori: R. Bleze

**Здание Информационного агентства Узбекистана.**
Главный архитектор проекта: Р.В. Блезэ

J. Malibekov, A. Mamedov, I. Yakubov, N. Demerdji, F. Ganiyev, A. Rudenko, N. Trikova, R. Salaxutdinov, A. Muslikov, B. Miraliyev, D. Toshmuxamedova, V. Shterenshis, N. Temruk, G. Magametova, G. Zavyalov, S. Sutyagin, N. Yegorova, F. Bondarenko, A. Babich, N. Kuranova va boshqalarning mehnati katta bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 23-martdagi 50-sonli "Respublika loyiha-qidiruv tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, institut "O'zshaharsozlik LITI" DUK (davlat unitar korxonasi)ga aylantirildi. 2010-yildan 2017-yilgacha bo'lgan davrdagi qurilish loyihalarida institutning tajribali mutaxassislari – R. Adilov, K. Zohidov, N. Yegorova, S. Sutyagin, N. Demerdji, A. Babich, B. Miraliyev, Y. Morduxovich, G. Kan, X. Nosirxodjayev, N. Temruk, X. Axmedov, A. Dadayanlar fidokorona mehnat qildilar.

Bugungi kunda korxonaning yagona ta'sischisi – O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, hozirda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi bo'lib, uning davlat ulushi 100 foizni tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-fevraldagi PQ-3502-sonli Qarorining qabul qilingani sohada shaharsozlik hujjatlarini ishlab

в республиканском масштабе – многоэтажных жилых домов, образцовых домов, социально-бытовых зданий, правительственных объектов, парков и площадей, Дворцов культуры и искусства.

С 1 января 1996 года институт "Узгоспроект" был реорганизован в ОАО "Узшахарсозлик ЛИТИ" (открытое акционерное общество). После обретения Независимости Узбекистаном в разработке еще более совершенных и отвечающих требованиям времени современных строительных проектов очень большой вклад внесли такие опытные специалисты как, С. Моршнев, Р. Ким, Я. Пинхасов, М. Зокиров, Ю. Мордухович, А. Махмутов, Ж. Малибеков, А. Мамедов, И. Якубов, Н. Демерджи, Ф. Ганиев, А. Руденко, Н. Трикова, Р. Салахутдинов, А. Мусликов, Б. Миралиев, Д. Тошмухамедова, В. Штереншис, Н. Темрук, Г. Магаметова, Г. Завьялов, С. Сутягин, Н. Егорова, Ф. Бондаренко, А. Бабич, Н. Куранова и др. На основании постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № 50 от 23 марта 2010 года "О мероприятиях по совершенствованию деятельности проектно-исследовательских организаций республики" институт был реорганизован в ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" (государственное унитарное предприятие).

chiqish bo'yicha uning asosiy ish rejasini belgilab berdi. Ushbu qarorda 2018-2022-yillarda respublikamizdagi aholi yashaydigan hududlarning bosh rejasini ishlab chiqish bo'yicha rejali dastur belgilab berildi. Mazkur dastur sohada ish unumi va sifatini yanada oshishiga, qulay imkoniyatlar va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekistonda mavjud bo'lgan 1201 ta shahar va shaharchalar, aholi yashash punktlarining 30 foizi shaharsozlik hujjatlari bilan ta'minlangan. Ushbu ko'rsatkichlarning 26 foizi "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasi tomonidan ishlab chiqilgani e'tiborga sazovor. Keyingi 5 yillikda innovatsion texnologiyalarga asoslangan "Yangi O'zbekiston" davrining qurilish va obodonlashtirish loyihalarida faol mehnat qilgan va qilayotgan tajribali mutaxassislar – B. Miraliyev, X. Axmedov, X. Nosirxodjayev, A. Narzullayev, N. Demerdji, I. Kurpelyanskaya, J. Djalilov, M. Masharipov, B. Bagirov, A. Abilpayziyev, K. Baymuratov va boshqalarning sa'y-harakati bilan zamonaviy qurilish loyihalari ishlab chiqilib, jahon talablari darajasidagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

В период с 2010 по 2017 годы над строительными проектами самоотверженно трудились мастера своего дела – Р. Адилов, К. Зохидов, Н. Егорова, С. Сутягин, Н. Демерджи, А. Бабич, Б. Миралиев, Ю. Мордухович, Г. Кан, Х. Носирходжаев, Н. Темрук, Х. Ахмедов, А. Дадаян. На сегодняшний день единоличный учредитель предприятия – Государственный комитет архитектуры и строительства Республики Узбекистан, а в настоящее время им является Министерство строительства и жилищно-коммунального хозяйства Республики Узбекистан, государственная доля которого составляет 100 процентов. Принятие постановления Президента Республики Узбекистан за № 3502 от 12 февраля 2018 года, на долгие годы определило план работы института, связанный с разработкой документов по градостроительству. В данном постановлении была определена целевая программа по разработке в 2018 – 2022 годах генерального плана рубежей проживания населения нашей страны. Данная программа служит подспорьем в повышении качества работы сфере, а также использовании благоприятных возможностей и современных технологий.











"Poytaxt" biznes markazi.
Loyiha bosh arxitektori: G. Magametova
Loyiha bosh muhandisi: A. Mamedov

Бизнес-центр "Пойтахт".
Главный архитектор проекта: Г. Магаметова
Главный инженер проекта: А. Мамедов



Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri bosh reja loyihasi, Namangan viloyati Namangan shahri bosh reja loyihasi, viloyatlar markazlaridagi katta shaharlar, tuman markazlari, boshqa shahar va shaharchalarning 20-25 yillik rivojlanish bosh reja loyihalarining ishlab chiqilgani bunga yaqqol misoldir. Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala tumani markazi va Yettitom shaharchasi bosh reja loyihalari ham 2022-yil doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, 2022-yilning 20-iyul kuni Respublika "Arxitektura va shaharsozlik Kengashi" yig'ilishida ko'rib chiqilib, ma'qullanib, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2022-yil 19-avgustdagi 2-sonli Qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur bosh reja loyihasi tegishli hududlarni batafsil rejalashtirish va qurilish loyihalariga muvofiq ishlab chiqilib, hozirgi paytda tasdiqlangan loyihalar bo'yicha qurilish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Aytish joizki, mamlakatimizda shaharsozlik sohasida jahon tajribalarini o'rganish va ularni o'z loyihalarimizda tatbiq etish borasida ham allaqachon xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan va o'rnatilmoqda. Jumladan, Birlashgan Arab Amirligi, Niderlandiya, Turkiya, Belarus, Estoniya, Rossiya kabi xorijiy davlatlar bilan tegishli hamkorlik aloqalari amalga oshirilib kelinmoqda. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi umumiy hududining Bosh loyiha-

Следует подчеркнуть, что сегодня из 1201 городов и городков, пунктов проживания населения Узбекистана 30 процентов обеспечены градостроительными документами. Заслуживает внимания, что 26 процентов данных показателей разработаны ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ". Благодаря усердию опытных специалистов, активно работавших и трудящихся в последние 5 лет в проектах по строительству и благоустройству периода Нового Узбекистана, основанных на инновационных технологиях Б. Миралиева, Х. Ахмедова, Х. Носирходжаева, А. Нарзуллаева, Н. Демерджи, И. Курпелянской, Ж. Джалилова, М. Машарипова, Б. Багирова, А. Абилпайзиева, К. Баймуратова, строительные работы ведутся на уровне мировых стандартов и требований.

В частности, неоспоримым примером вышесказанного является разработка Генпроекта города Нукуса, Генерального плана города Намангана, генеральных планов 20-25-летнего развития больших городов в областных центрах, райцентров и др. Примечательно, что генеральные проекты центра Кукдалинского района и городка Еттитом Кашкадарьинской области были разработаны в течение прошлого года. 20 июля 2022 года данные проекты были рассмотрены и одо-



**Farg'ona, Termiz, Buxoro shaharlaridagi San'at saroylari .**
Loyiha bosh arxitektori:
G. Zavyalov, R. Salomov
Loyiha bosh muhandisi:
N. Timruk, X. Axmedov

**Дворцы искусств в Фергане, Термезе, Бухаре**
Главный архитектор проекта:
Г. Завьялов, Р. Саломов
Главный инженер проекта:
Н. Тимрук, Х. Ахмедов



sini ishlab chiqish ustida tegishli masalalar hal etilmoqda.

Bugungi kunda Toshkent arxitektura qurilish universiteti, M. T. O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti va Belarus Respublikasi "Stroytexnorm" unitar korxonasi bilan institutning Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo'limi o'rtasida memorandum tuzilgan. Mazkur memorandumda shaharsozlik normalarini ishlab chiqish va qayta ishlash, ilmiy-texnik hamkorlik, sohaga energiya samarador va innovatsion texnologiyalarni jalb etish hamda tatbiq qilish maqsadida korxona va tashkilotlar bilan kelishuvlar yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, institutda kadrlarni qayta tayyorlash, ularning malaka va saviyalarini yanada oshirish maqsadida ilmiy ishlar olib borish masalasiga ham katta ahamiyat qaratilmoqda.

Xususan, tashkilotimizda mehnat qilayotgan yosh, iqtidorli va salohiyatli mutaxassislarning doktoranturaga hujjatlarini topshirish, ularni erkin izlanuvchi sifatida 3-4 yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish, doktorlik ishlarini yoqlash, ilmiy rahbarlar yordamida izlanishlar olib borish kabi ishlar boshlab yuborilgan.

Davr bilan hamohang holda, shaharsozlik sohasida mehnat qilayotgan barcha xodimlar bugungi tezkor taraqqiyot davrida

брены на заседании Республиканского "Совета по архитектуре и градостроительству" и утверждены 19 августа 2022 года постановлением №2 Министерства строительства и коммунального хозяйства Республики Узбекистан.

Важно отметить, разработка планов велась в соответствии с детальным планированием соответствующих территорий, в настоящее время там по утвержденным проектам ведутся строительные и ремонтные работы. Следует подчеркнуть, что в нашей стране в деле изучения мирового опыта в области градостроительства и внедрения его в наши проекты уже давным-давно с зарубежными странами установлены деловые партнерские отношения. В частности, осуществляется соответствующие взаимовыгодное сотрудничество с такими странами, как Объединенные Арабские Эмираты, Нидерланды, Турция, Республика Беларусь, Эстония, Россия.

На сегодняшний день составлен меморандум между Ташкентским университетом архитектурного строительства, институтом сейсмической устойчивости механики и сооружений имени М. Уразбаева, унитарным предприятием "Стройтехпром" Республики Беларусь и отделом "Научных исследований и иннова-



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlari ijrosini ta'minlash maqsadida g'ayrat va shijoat bilan mehnat qilmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli Farmoni bo'yicha Qurilish va kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan sohani modernizatsiyalash va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, binolarning texnik holatini o'rganish, mustahkamligini ta'minlash, chet ellik investorlar mamlakatimizda qurilish ishlarini amalga oshirganda maxsus texnik shartlar asosida ularni ishlab chiqish, loyihalarda boshqa zamonaviy normalarni tatbiq etish, shuningdek, energiya samarador va yashil texnologiyalarni joriy etish ustida izlanishlar olib borilmoqda.

Ayni paytda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mazkur PF-6119-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 140-sonli Qarori asosida respublika va aholi hududining bosh tarxini ishlab chiqish ustidagi rejalar muhokama etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bir asrlik yubileyini qarshi olish arafasida turgan loyihalash faoliyatida boy tajribaga ega "O'zshaharsozlik LITI" davlat muassasasi rivojlanishda davom etadi.

ций" института. В данном меморандуме достигнуты соглашения по разработке и обновлению норм градостроительства, научно-техническому сотрудничеству, привлечению и внедрению в сферу методов эффективного использования энергии и инновационных технологий. Кроме этого, предприятие уделяет большое внимание вопросам переподготовки специалистов, проведению научных работ в целях еще большего повышения их квалификации и уровня. Особенно, в последние годы начались работы по сдаче документов в докторантуру работающих на предприятии молодых, одаренных и способных специалистов, привлечению их в качестве свободных исследователей по 3-4 направлениям, защите ими докторских диссертаций, под руководством руководителей проведению научны изысканий.

В соответствии с требованием времени, все без исключения специалисты градостроительной сферы в сегодняшний ускоренный период развития вдохновенно и энергично трудятся в целях обеспечения указов, постановлений и других нормативных документов Президента Республики Узбекистан, а также Кабинета Министров Республики Узбекистан. По постановлению Президента Республики Узбекистан от 27 ноября 2020 года за №ПФ-1619 Министерством строительства и коммунального хозяйства республики проводятся исследования по модернизации сферы и развитию инновационных технологий, изучению технического состояния зданий, обеспечению их прочности, при осуществлении иностранными инвесторами в нашей стране строительных работ. На их основании разрабатываются специальные технические условия по внедрению в проекты других современных норм, а также энергоемких и зеленых технологий.

В настоящее время обсуждаются меры по разработке генерального плана населенных пунктов республики на основании указа Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиёева за №УП-6119, а также постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 3 июня за №140.

В конце хочется отметить, на рубеже векового юбилея имея в арсенале богатый опыт проектной деятельности, ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" продолжает активное развитие.

# INSTITUT FAXRIYLARI

# ВЕТЕРАНЫ ИНСТИТУТА



## Aleksandr Zotov



## Александр Зотов

Aleksandr Zotovning hayoti mashaqqat va qiyinchiliklar silsilasida kechdi. 1914-yilning 15-mayida ishchi oilasida dunyoga kelgan Aleksandr Zotov 11 yoshida oilasi bilan Toshkent viloyatining Angren shahriga ko'chib keldi. Aleksandr Zotov o'zbek mahallasida ulg'ayib, maktabda o'qidi va qalbida o'zbek millati va shu vatanga mehr-muhabbat hislari bilan voyaga yetdi. O'zbek tilida gapirishni o'rgandi, xalqimizning udumlarini sevib qabul qildi. O'quvchilar orasida bilimga chanqoqligi, intilishi bilan o'qituvchilarning e'tiborini tortgan Aleksandr Zotov chizmachilik, suratlar chizishdagi iqtidorini namoyon etdi.

Maktabni bitirganidan so'ng 1931-yili kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan Aleksandr Zotov O'rta Osiyo politexnika instituti talabasi bo'ldi. 1951-yilning fevral oyida Aleksandr Zotov hukumat tomonidan tasdiqlangan Angren shahrini rivojlantirish bosh rejasining loyihalash ishlarini boshladi. Ikki yildan so'ng Angren shahrida Zotovning loyihasi bo'yicha qizg'in qurilish ishlari boshlandi.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning arxitektura va qurilish sohasidagi faol xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Mustaqillik yillarida esa u "Mustaqillik" ko'krak nishoni, tarmoq mukofotlari bilan taqdirlandi. Mustahkam irodasi, kasbiga bo'lgan mehri va sadoqati, o'ziga bo'lgan qat'iy ishonchi tufayli arxitektura va loyihalash ishlari uning hayoti mazmuniga aylangan edi.

Жизнь Александра Николаевича Зотова протекала в череде испытаний и трудностей. Александр Зотов, родившийся 15 мая 1914 года в рабочей семье, переехал с семьей в Ангрен Ташкентской области, когда ему было 11 лет. Вырос он в узбекской махалле, там же учился в школе и воспитал в своем сердце любовь к узбекскому народу и этой стране. Он научился разговаривать на узбекском языке и с любовью принял наши традиции. Александр Зотов, привлекший внимание учителей своей тягой к знаниям, проявил свой талант в рисовании и живописи.

После окончания школы в 1931 году стал студентом Среднеазиатского политехнического института. На 4 курсе он уже выбрал сферу городского планирования. В феврале 1951 года Александр Зотов приступил к проектным работам по генеральному плану развития города Ангрена, утвержденному правительством. Два года спустя здесь начались интенсивные строительные работы по проекту Зотова.

За самоотверженный труд и заслуги в области архитектуры и строительства в послевоенные годы Александр Зотов был награжден государственными наградами. После обретения суверенитета был удостоен нагрудного знака "Независимости", отраслевыми наградами. Его сила воли, любовь и преданность своей профессии, а также непоколебимая вера в себя отразились в его осмысленной жизни в архитектуре и проектировании.

# Dmitriy Shuvayev



# Дмитрий Шуваев

Dmitriy Shuvayev 1937-yilning 19-dekabrida Toshkent shahrida dunyoga kelgan. U 1960-yilda O‘rta Osiyo politexnika institutining Qurilish fakultetini a’lo baholarga tamomladi. 1960-yildan boshlab 1990-yilga qadar "O‘zgosproyekt" va "O‘zshaharsozlik LITI" institutlarida respublika miqyosidagi shaharlar qurilishlarining loyihalarini ishlab chiqishda faoliyat ko‘rsatdi.

Dmitriy Shuvayev o‘zining mazkur institutdagi ko‘p yillik ish faoliyati mobaynida oddiy arxitektura loyihalaridan tortib, eng murakkab va yirik loyihalarda ham faol ishtirok etdi. U umrini o‘zi sevgan kasbiga bag‘ishlab, yurti va xalqiga sidqidildan mehnat qildi.

Dmitriy Shuvayev Namangan shahridagi ko‘plab loyihalarning muallifi sifatida shaharda qurilgan ko‘rkam binolarning yaratilishida, shahar ko‘rki va jamolini shakllantirishda katta jonbozlik ko‘rsatdi. Jumladan, u Namangan viloyati hokimligi binosi, Namangan shahar markazidagi bog‘lar va teatr maydonlarini, shuningdek, Do‘stlik va A. Navoiy ko‘chalari qurilishi va boshqa ko‘plab loyihalarning muallifidir.

Tajribali arxitektor D. Shuvayev Namangan shahri Maslahatlar palatasi va viloyat hokimligi bonosi Bosh loyihasi muallifi hisoblanadi. Shuningdek, u Toshkent shahrida bunyod etilgan San’at uyi, Olimpiya shaharchasi, Ilmiy-tadqiqot instituti va "Onalik va bolalikni muhofaza qilish markazi" binolari qurilish loyihalarida faol ishtirok etgan.

Ko‘p yillik faoliyati va samarali mehnatlari uchun 1970-yili sobiq ittifoq Oliy Kengashi tomonidan "Jasorat" medali bilan taqdirlandi va Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Dmitriy Shuvayev 2008-yilning 23-mart kuni Rossiya Federatsiyasining Ivanovo shahrida vafot etgan.

Дмитрий Михайлович Шуваев родился 19 декабря 1937 года в г. Ташкенте. В 1960 году с отличием окончил Строительный факультет Среднеазиатского политехнического института. С 1960 по 1990 годы активно участвовал в разработке проектов республиканского масштаба в институте "Узгоспроект", УзНИИП градостроительства.

Дмитрий Шуваев за свою многолетнюю деятельность принимал активное участие в самых сложных и масштабных проектах. Он посвятил всю свою жизнь любимому делу, служению родине и народу.

Дмитрий Шуваев внес огромный вклад в формировании облика и красоты города Намангана. В частности, он является автором здания Наманганской областной администрации, сквера имени Ленина в центре города, парков и театров, а также строительства улиц Дустлик и Алишера Навои и многих других проектов.

Гениальный градостроитель является автором и почетным членом Наманганской городской консультационной палаты и Генерального проекта областной администрации. Он также стоял у истоков строительства зданий Дома искусств, Олимпийского городка, Научно-исследовательского института (НИИ) и "Охраны материнства и детства" в Ташкенте.

За многолетнюю деятельность и эффективную работу в 1970 году Верховным Советом СССР был награжден медалью "Мужество" и Государственной премией имени Хамзы.

Дмитрий Михайлович Шуваев скончался 23 марта 2008 года в городе Иваново Российской Федерации.



# Vladimir Berezin

Shunday insonlar bo'ladiki, qilgan zalvorli ishlari bilan o'ziga haykal qo'yib ketadi. Arxitektura sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan Vladimir Berezin ana shunday inson edi.

1931-yilda Toshkent shahrida arxitektorlar oilasida dunyoga kelgan V. Berezinning bolaligi oddiy o'tdi. 1949-yilda poytaxtdagi maktablardan birida ta'lim oldi. O'quvchilik davridan a'lo baholarga o'qib, o'qituvchilarning e'tiboriga tushdi. 1956-yilda Politexnika institutining Arxitektura va qurilish fakultetini tamomlagach, Qozog'iston Respublikasi Olmaota shahar "Kazgiprogorselstroy" loyiha institutida faoliyatini davom ettirdi. Arxitektorlar sulolasining farzandi bo'lgan V. Berezin 1957-yilda Toshkent shahar "O'zgosproyekt" loyihalash korxonasidagi ilk faoliyatidayoq "Qo'riq yerni o'zlashtirish" loyihasida ishtirok etib, g'olib bo'ldi.

V. Berezin 1957-1960-yillarda arxitektor vazifasida ishlab, ko'plab qurilish loyihalarini amalga oshirdi. U mamlakatimizdagi bir qator namunaviy turar-joy binolarini, maktabgacha ta'lim muassasalari va tajriba-konstruktorlik loyihalar (eksperimental yirik panelli turar-joy binolari)ni ishlab chiqdi. O'z jamoasi bilan birgalikda O'zbekiston xalq xo'jaligi ko'rgazmasi, Toshkent markaziy univermagi fasadi, Do'rmondagi muhim binolar va mehmonxonalar loyihalarini ishlab chiqdi.

1960-yilda V. Berezin samarali faoliyati uchun O'zbekiston Arxitektorlar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi. 1965-1991-yillarda "O'zgosproyekt" institutining bosh arxitektori vazifasida faoliyat yuritdi.

# Владимир Березин

Есть люди, которые своими благими деяниями уже при жизни ставят себе памятник. Таким человеком был Владимир Березин, выдающийся специалист в области архитектуры.

У нашего героя, родившегося в 1931 году в городе Ташкенте в семье архитекторов, было обычное детство. В 1949 году он окончил одну из столичных школ. В школьные годы отличался своим прилежным поведением и отличной учебой, потому был замечен преподавателями. После окончания в 1956 году архитектурно-строительного факультета Политехнического института продолжил работу в проектном институте "Казгипрогорсельстрой" города Алматы Республики Казахстан. В. Березин, славный продолжатель династии архитекторов, уже в начале своей деятельности в 1957 году в ташкентском городском проектном бюро "Узгоспроект" принял участие в проекте "Освоение Голодной степи" и стал победителем.

В. Березин работал архитектором в 1957-1960 годах и реализовал множество строительных проектов. Им разработан ряд проектов типовых жилых домов, дошкольных образовательных учреждений и опытно-конструкторских построек (экспериментальных крупнопанельных жилых домов) в нашей стране. Вместе со своей командой Владимир Владимирович разработал проекты выставочных павильонов народного хозяйства Узбекистана, фасада ЦУМа города Ташкента, гостиниц и значимых сооружений в Дурмене.

В 1960 году за плодотворную работу В. Березин был принят в Союз архитекто-

V. Berezin loyihalash-konstruktorlik ishlardagi faol xizmatlari uchun O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1976-yil 24-avgustdagi Farmoni bilan "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan arxitektor" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi. 1966-yilda SSSR Arxitektorlar IX syezdining, 1970-yilda SSSR Arxitektorlar V Kongressining delegati etib saylandi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi ma'muriy binosining qurilish loyihasi uchun Hamza nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. 1991-yilda Spitak shahri (Armaniston)dagi zilzila oqibatlarini tugatishdagi faol ishtiroki uchun "Oliyjanoblik va mehribonlik. Armaniston" hamda "Mehnat jasorati" medali bilan taqdirlandi.

V. Berezin 1991-yilning yozida salomatligi yomonlashgani bois nafaqaga chiqdi. 2007-yilning 7-dekabrida uzoq davom etgan xastalik tufayli vafot etdi. Bugungi kunda uning nabirasi – Vladimir Berezin avloddan yetishib chiqqan 14-arxitektor bo'lib, Voronej shahridagi Arxitektura-qurilish universitetini tamomlab, bobosining kasbini davom ettirmoqda.

ров Узбекистана. С 1965 по 1991 годы работал главным архитектором института "Узгоспроект".

Постановлением Верховного Совета Узбекской ССР от 24 августа 1976 года за особый вклад в развитии проектно-конструкторского дела В. Березину присвоено почетное звание "Заслуженный архитектор Узбекистана". В 1966 году избран делегатом IX Съезда архитекторов СССР, а в 1970 году V Конгресса архитекторов СССР. За разработку проекта строительства административного здания ЦК Компартии Узбекистана В. Березин был награжден Государственной премией имени Хамзы. В 1991 году награжден памятной медалью "Благородство. Милосердие. Армения" и медалью "Трудовое мужество" за активное участие в ликвидации последствий землетрясения в городе Спитак (Армения).

Летом 1991 года В. Березин оставил свою работу по состоянию здоровья. Сердце выдающегося архитектора перестало биться 7 декабря 2007 года в результате продолжительной болезни. Сегодня его внук, Владимир Березин, 14-й представитель династии архитекторов, окончил Воронежский архитектурно-строительный университет и продолжает дело своего гениального деда.



# Rixard Bleze



# Рихард Блезэ

Toshkent ko'rinishlarini o'zida jam etgan qator suratlar to'plamini tomosha qilarkansiz, beixtiyor ana shu go'zal poytaxt shaharsozligiga ulkan hissa qo'shgan, yuksak tajribaga ega bo'lgan arxitektor Rixard Blezeni yodga olmasdan ilojimiz yo'q. 1970-1980-yillardagi sobiq O'zSSRning iqtidorli arxitektorlaridan bo'lgan Rixard Bleze o'z ishining haqiqiy ustasi, tajribali va salohiyatli arxitektor, tinib-tinchimas, halol va fidoyi inson edi.

Rixard Bleze bir umr shaharsozlik ilmiy-tadqiqot bosh loyiha instituti va uning tasarrufida bo'lgan idoralarda faoliyat olib borib, hozirda ham Toshkent shahrining ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan davlat ahamiyatiga molik inshootlar, maktablar, bolalar bog'chalari, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari binolari, turar-joylar qurish loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etdi. Ularni bunyod etishda bosh rassom va bosh muhandis sifatida faoliyat yuritdi.

Rixard Vladimirovich 1936-yilning 28-mart kuni Toshkent shahrida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. U yoshligidan surat chizishni yoqtirar, maktabda rasm, matematika va boshqa aniq fanlardan a'lo bahoga o'qidi. U o'quvchilik davridayoq arxitektor bo'lishga ahd qildi. Uning orzusi ro'yobga chiqdi. Politexnika institutining Qurilish fakultetiga hujjatlarini topshirib, kirish imtihonlarida talabalikka nomzodlar orasida eng yuqori ball olib, talaba bo'ldi. 1960-yilda institutni tugallab, shaharsozlik bosh loyiha institutida mehnat faoliyatini boshlagan Rixard Bleze ishlab chiqqan loyihalari bilan tez orada rahbariyat e'tiboriga tushdi va 1965-yilda

Наблюдая нескончаемый поток фотографий современных архитектурных шедевров Ташкента, нельзя не упомянуть имя гениального архитектора, величайшего градостроителя Рихарда Блезэ, внесшего огромный вклад в создание неповторимого и прекрасного облика столицы. Один из самых выдающихся архитекторов УзССР 1970-1980 годов Рихард Блезэ был настоящим профессионалом своего дела, честным и самоотверженным человеком.

Рихард Блезэ всю свою жизнь проработал в Научно-исследовательском институте проектирования градостроительства и его подразделениях, активно участвовал в разработке проектов по строительству объектов государственного значения, зданий школ, детских садов, учебных и медицинских учреждений, жилых домов, которыми славится город Ташкент. При строительстве этих сооружений также выступал в качестве главного художника и инженера.

Рихард Владимирович Блезэ родился 28 марта 1936 года в Ташкенте в интеллигентной семье. Он с детства любил рисовать, и потому по рисованию, математике и другим точным наукам получал только отличные оценки. Еще в школьные годы любознательный и целеустремленный мальчуган поставил перед собой цель стать архитектором. Мечта привела его в Строительный факультет Политехнического института, где он набрал наивысший балл и стал студентом архитектурного отделения. После окончания

loyihalar bosh arxitektori etib tayinlandi. U 1991-yilning bahorigacha loyihalash va arxitektura sohasida ish olib borib, yurt kelajagi, uning ko'rkam va milliy qiyofasini saqlab qolish, davlat ahamiyatiga molik ko'plab binolarning bunyod etilishida o'z hissasini qo'shdi.

Uning mehnatlari munosib taqdirlandi. U 1987-yilda "O'zSSRda xizmat ko'rsatgan arxitektor" unvoniga sazovor bo'ldi. Bleze Rixard faoliyati mobaynida juda ko'p loyihalarni ishlab chiqishda ishtirok etdi. Jumladan, Do'rmondagi "Inturist" mehmonxonasi, Buxoro shahridagi viloyat partiya qo'mitasi binosi, Jizzaxdagi Do'stlik majmuasi kabi loyihalarni amalga oshirilishida faol mehnat qildi. U Do'rmondagi mehmonxona qurilishi jarayonidagi mehnati uchun O'zSSR Oliy Kengashining faxriy yorlig'i, 1970-yilda sobiq ittifoq Oliy Kengashi Prezidiumining yubiley medali, 1987-yilda esa "Mehnat faxriysi" medali bilan taqdirlandi.

института в 1960 году Рихард Блезэ свою долгую трудовую деятельность начал в УзНИИП градостроительства, где очень скоро своими уникальными творениями заслужил внимание и уважение руководства и в 1965 году был назначен главным архитектором проектов. Проработав в сфере проектирования и архитектуры до весны 1991 года, он стоял у истоков возведения множества новейших зданий государственного значения.

Многолетний его труд был высоко оценен государством. В 1987 году ему было присвоено почетное звание "Заслуженный архитектор УзССР". Рихард Блезэ за годы своей деятельности участвовал в разработке многих проектов. В том числе, принимал участие в качестве автора проекта в разработке таких объектов как гостиница "Интурист" в поселке Дурмень, здания областного партийного комитета в Бухаре, комплекса Дружбы в Джизаке. За проект гостиницы в Дурмене награжден Почетной грамотой Верховного Совета УзССР. В 1970 году награжден юбилейной медалью Президиума Верховного Совета СССР, а в 1987 году медалью "Ветеран труда".






**Yoshlar "Shodlik Palace" mehmonxonasi.**
Loyiha bosh arxitektori: R. Bleze
Loyiha bosh muhandisi: O. Braverman

**Молодёжный отель "Shodlik Palace".**
Главный архитектор проекта: Р. Блезэ
Главный инженер проекта: О. Браверман



# Sergo Sutyagin

Arxitektor Sergo Sutyagin Moskva shahrida tug'ilgan bo'lsa-da, uning keyingi hayoti O'zbekistonda kechdi va bir umr shu yurtning manfaatlari uchun xizmat qildi. 1937-yilning 23-fevralida Moskva shahrida tug'ilib, voyaga yetgan S. Sutyaginning bolaligi oddiy kechgan bo'lsa-da, u o'z iqtidori bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. U bolalik chog'laridanoq o'z qiziqishi va iqtidori tufayli arxitektura sohasini tanladi. 1955-1960-yillarda O'rta Osiyo politexnika institutining arxitektura yo'nalishida tahsil olib, poytaxtimizdagi "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha institutida mehnat faoliyatini boshladi.

U O'zbekistondagi 40 yillik ish faoliyati mobaynida ko'pgina ma'muriy binolar, Toshkent, Samarqand, Dushanbe, Xiva, Qo'qon, Urganch va Olmaliq shaharlarida qad rostlagan turar-joy binolari qurilishlarida ishtirok etgan tajribali mutaxassisdir. 1964-yili bir guruh yosh arxitektorlar bilan Toshkent shahrida 2500 o'ringa mo'ljallangan ko'ptarmoqli kinoteatr – san'at saroyi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha o'tkazilgan tanlov-

# Серго Сутягин

Хотя архитектор Серго Михайлович Сутягин родился в Москве, его дальнейшая жизнь прошла в Узбекистане, и всю свою жизнь он служил интересам этого благословенного края. Родившийся 23 февраля 1937 года в Москве, Серго отличался от своих сверстников неординарными способностями и талантом. Будучи еще ребенком, он выбрал архитектуру. В 1955-1960 годах он изучал архитектуру в Среднеазиатском политехническом институте и свою трудовую деятельность начал в проектном институте "Узшахарсозлик ЛИТИ".

За 40 лет своей работы Серго Сутягин спроектировал и принимал участие в строительстве административных и жилых зданий в Ташкенте, Самарканде, Душанбе, Хиве, Коканде, Ургенче и Алмалыке. В 1964 году группа молодых архитекторов победила в республиканском конкурсе проектов многофункционального кинотеатра – Дворца искусств в городе Ташкенте на 2,5 тысячи мест. В ходе строительства Серго Сутягин стал глав-

da g'olib bo'ldi va uning qurilishida bosh arxitektor sifatida ishtirok etdi. S. Sutyaginning loyihalari orasida, ayniqsa, "Panorama" kinoteatri loyihasi, "Samarqand darvoza" choyxonasi loyihasi alohida ajralib turadi.

Fidoyiligi, samarali mehnati bilan O'zbekiston Respublikasining taniqli arxitektoriga aylangan S. Sutyagin "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan arxitektor" unvoni bilan taqdirlandi. O'zbekiston Arxitektorlar uyushmasi a'zosi, Arxitektorlar xalqaro akademiyasi akademigi bir necha xalqaro mukofotlar laureati edi. San'at sohasidagi loyihalari uchun A. Navoiy nomli davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Sergo Mixaylovich o'ziga xos noyob arxitektura maktabini yaratib, bir qator iste'dodli yosh arxitektorlarni tarbiyaladi. U har bir loyihaning novatori bo'lib, yangi obrazlarni qidirardi. Shu bois, o'zidan boy meros qoldirgan.

Bugungi kunda S. Sutyaginning noyob arxitektura merosi nafaqat poytaxtimiz, balki yutrimizning ko'plab shaharlariga ko'rk bag'ishlab, kelajak avlod uchun xizmat qilmoqda.

ным архитектором. Среди уникальных работ Серго Сутягина особую роль занимают проекты кинотеатра "Панорама" и чайханы "Самарканд-дарбаза" и много других.

Заслуги С. Сутягина были высоко оценены правительством, и ему было присуждено звание "Заслуженного архитектора Узбекистана", также он являлся членом Союза Архитекторов страны, был академиком Международной академии архитектуры, лауреатом национальных и международных премий. Был удостоен высшей награды в области искусства – Государственной премии имени Алишера Навои.

Серго Михайлович создал свою уникальную архитектурную школу, воспитал целую плеяду талантливых молодых архитекторов. В каждом своем проекте он был новатором, искал новые образы, оставил богатое наследие.

Сегодня уникальное архитектурное наследие С. Сутягина раскрывает красоту не только нашей столицы, но и многие города нашей республики, служа на благо будущего поколения.



**"Kosmonavtlar" metro bekati.**
Loyiha bosh arxitektori: S. Sutyagin.
Loyiha bosh muhandisi: A. Braslavskiy.

**Станция метро "Космонавтлар".**
Главный архитектор проекта: С. Сутягин
Главный инженер проекта: А. Браславский



# Stefan Polupanov

1904-yilning 22-dekabrida Xarkov viloyatining Kupyansk mintaqaviy stansiyasidagi koʻp farzandli oilada dunyoga kelgan Stefan temir yoʻllar ishchisi oilasida ulgʻayib, voyaga yetdi.

1920-yilda rassomchilik va qurilish institutining arxitektura fakultetiga imtihonsiz oʻqishga qabul qilingan Stefan Polupanov institutda oʻqish bilan bir qatorda, chizmachilik sohasida ham izlanishlar olib bordi. U yosh boʻlishiga qaramay, Xarkovda allaqachon chizmachilik va loyihalash boʻyicha tanilib ulgurgan edi. Oʻsha davrning oʻzidayoq u qishloqlar, maktab va yashash uylarining loyihalarini bemalol chiza boshlagan edi. 1928-yilda "Yangi binolarning loyihasini tuzish" boʻyicha oʻtkazilgan tanlovda ilk marta ishtirok etib, gʻolib boʻlgan Stefan Oʻrta Osiyo shaharlarini eski va yangi chegarasini buzmasdan, ularning milliyligini saqlab qolgan holda zamonaviy loyihalar tuzish uchun Toshkentga, ishga joʻnatildi.

Oʻzbekistonga kelgan yosh arxitektor bu mamlakatning tarixi, oʻzbek xalqining urf-odatlari hamda uning milliy-madaniy arxitekturasini oʻrganishga kirishdi. Stefan Polupanov birinchilardan boʻlib Oʻzbekistonda qurilish va bunyodkorlik ishlarida milliylikni uygʻunlashtirgan holda yangidan-yangi arxitektura dizaynlarini olib kirdi, shaharlar va qishloqlarning yan-

# Стефан Полупанов

Стефан родился 22 декабря 1904 года в небольшом поселке при станции Купянск-узловой Харьковской губернии в многодетной семье железнодорожного служащего.

В 1920 году его без экзаменов принимают в институт строительства и рисования на факультет архитектуры, где наряду с учебой он изучает азы черчения. Несмотря на молодость уже в то время его проектные работы знает весь Харьков. Он с легкостью создаёт проекты сел, школ и жилищных домов. В 1928 году он впервые принимает участие в конкурсе "Создание проекта по строительству нового здания" и после победы в конкурсе, его отправляют работать в Ташкент. Здесь он приступает к разработке современных проектов строительства городов Средней Азии, не нарушая их прежние и новые границы, уделяя особое внимание сохранению национального колорита.

Прибыв в Узбекистан, первым делом молодой архитектор Стефан Полупанов принялся изучать историю страны, традиции его народа и конечно же национальную архитектуру. Стефан стал первопроходцем в создании проектов, где национальный дух сплетается с современными решениями строительства, так по его проектам города и села приобре-

gicha ko'rinishini zamonaviy dizayn bilan boyitishga kirishdi. Stefan Polupanov Andijon va Samarqand viloyatlarida ham uzoq muddatli xizmat safarlarida bo'lib, u shaharlarda ham katta-katta loyihalar ustida ish olib bordi. Uning loyihalari asosida mehmonxonalar, hammomlar, tug'ruqxonalar, sanatoriya va maktablar, shifoxonalar va katta maydonga ega parklar qurildi. Xususan, Toshkentdagi "Muqumiy" teatri loyihasi, A. Navoiy haykali, shuningdek, A. Navoiy nomidagi Davlat adabiyoti muzeyining qurilish loyihalari ham S. Polupanovning mehnati samarasidir.

Uning mehnatlari munosib taqdirlanib, bir qancha ordenlar bilan mukofotlandi.

1957-yil 11-avgustda bevaqt vafot etgan olim Toshkentdagi Botkin qabristoniga dafn etilgan.

ли новый, не похожий на прежний облик. Стефан Николаевич выезжал в длительные командировки в Андижан и Самарканд, где работал над крупными проектами гражданского строительства. По его разработкам выстроены административные здания, гостиницы, бани, родильные дома, санатории, школы, больницы, парки с павильонами. Проект театра Мукими, установка памятника А. Навои, а также проекты строительства Государственного музея литературы имени А. Навои являются результатом работы С. Полупанова.

Правительство страны высоко оценило заслуги архитектора – он был награжден множественными орденами.

11 августа 1957 года Стефан Николаевич скоропостижно скончался. Похоронен на Боткинском кладбище.






**"Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi", "O'zbekiston paviloni". Moskva**

**"Выставка достижений народного хозяйства", "Павильон Узбекистана". Москва**

# Yevgeniy Gogin



# Евгений Гогин

1947-yilning 10-aprelida dunyoga kelgan Yevgeniy Gogin 1965-yilda Toshkent politexnika instituti Qurilish fakultetining arxitektura bo'limiga o'qishga kirib, 1972-yilda tugatdi. Institutni bitirgach "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha institutining Bosh rejalar bo'limida texnik-arxitektor lavozimida ish boshladi.

1972-yilda Sovet armiyasi safida xizmat qilib, xizmatni tugatgach institutning Bosh rejalar bo'limida arxitektor lavozimida mehnat faoliyatini davom ettirdi. Y. Gogin 2020-yilgacha loyiha bosh arxitektori vazifasida faoliyat ko'rsatdi. Keyinchalik Qoraqalpog'iston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida shaharsozlik bo'yicha mas'ul bo'ldi. Bosh rejalar bo'limida ishlagan 52 yillik faoliyati mobaynida Yevgeniy Gogin rahbarligida ko'plab bosh rejalar, shaharlar va shahar tipidagi aholi punktlarining batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqildi. 1989-yilda Armaniston shaharlarini zilzila vayron qilganida, Spitak shahrini tiklashda faol ishtirok etib, faxriy yorliq va diplomlar bilan taqdirlandi.

Sohadagi faol mehnatlari uchun 1986-yilda "Mehnatdagi xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlandi.

U shaharsozlik bo'yicha ko'plab yosh arxitektorlarga ustozlik qildi. Salohiyatli arxitektorning mualliflik ishlari juda ko'p va zalvorlidir. Jumladan, Samarqand viloyati Oqtosh shahri (1974-y.) va Jomboy shahri (1976-y.), Jizzax viloyati Uchtepa tumani (1977-y.), Jizzax shahar markazi (1979 y.), Namangan viloyati Uychi tumani (1980-y.), Sirdaryo viloyati (1982-y.), Gazli va Buxoro viloyati (1984-y.), Samarqanddagi Motrid va SamMI turar-joy massivi (1985-y.), Jizzax shahar markazining sharqiy qismi (1987-y.), Namangan shahar va Axsikentdagi (1989-y.) turar-joy massivi shular jumlasidandir.

Евгений Петрович Гогин родился 10 апреля 1947 года. В 1965 году поступил на архитектурное отделение Строительного факультета Ташкентского политехнического института, который окончил в 1972 году. Свою трудовую деятельность начал с должности техника-архитектора в отделе генерального плана "Узшахарсозлик ЛИТИ".

В 1972 году служил в рядах Советской Армии, а после окончания военной службы продолжил работу архитектором в отделе генерального плана. Е. Гогин был главным архитектором проекта до 2020 года. В последующие годы являлся куратором градостроительства в Республике Каракалпакстан и Кашкадарьинской области. За 52-летнюю карьеру в отделе генерального плана под руководством Евгения Петровича было разработано множество генеральных планов, проектов детальной планировки городов и поселков городского типа. В 1989 году, когда города Армении были разрушены землетрясением, Е. Гогин принял активное участие в восстановлении города Спитак и был награжден Почетными грамотами и дипломами.

В 1986 году был награжден медалью "За трудовые заслуги".

Он стал учителем для многих молодых архитекторов по градостроительству. Авторские работы гениального архитектора многочисленны и весомы. В частности, генеральные планы городов: Акташ (1974 г.) и Джамбай (1976 г.), Самаркандской области, Учтепинского района Джизакской области (1977 г.), центра города Джизак (1979 г.), Уйчинского района Наманганской области (1980 г.), Сырдарьинской области (1982 г.), Газли и Бухарской области (1984 г.), поселок Матрид и жилой комплекс СамМИ (1985 г.), восточной части центра города Джизак (1987 г.), жилых массивов Наманганa и Ахсикента (1989 г.).

# Baxtiyar Miraliyev



# Бахтияр Миралиев

Loyiha bosh arxitektori vazifasida "O'zshaharsozlikLITI" davlat muassasasida ko'p yillar faoliyat ko'rsatgan Baxtiyar Miraliyev sohada ko'plab shogirdlar yetishtirib, betakror loyihalar muallifi sifatida halol mehnati bilan jamoada hurmat-e'tibor topdi.

Institutda 56 yil fidokorona mehnat qilgan B. Miraliyev rahbarligida amalga oshirilgan ishlar uning me'morlik faoliyatida zalvorli o'ringa egadir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binolarining muhandislik kommunikatsiyalarini modernizatsiyalash va mukammal ta'mirlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Apparatining bino va inshootlarini qayta qurish, Toshkent Tibbiyot akademiyasi huzuridagi Diyetologiya respublika o'quv-ilmiy markazi binosining loyihalari B. Miraliyevning me'moriy yechimlari asosida qurilgan.

Uning muallifligida Do'rmondagi "Ko'ksaroy" qarorgohi hududida mukammal ta'mirlash va mehmonxonalar uchun kottejlar, Toshkent shahar Sultoniya ko'chasidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Apparatiga qarashli bino va inshootlar majmuasi, 2-sog'lomlashtirish pansionatidagi muhandislik tizimlarini mukammal ta'mirlash va obodonlashtirish, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov nomidagi ilmiy-o'quv yodgorlik majmuasi binolari rekonstruksiyasi, Nurafshon shahridagi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qismi bino va inshootlari loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan.

Проработав много лет в должности главного архитектора государственного учреждения "Узшахарсозлик ЛИТИ" Бахтияр Миралиев подготовил целую плеяду учеников, архитекторов, квалифицированных специалистов отрасли, своим трудолюбием и неповторимыми проектами снискал всеобщее уважение коллектива.

На протяжении 56 лет разработанные под руководством Б. Миралиевым архитектурные проекты, заслуживают отдельного внимания. В частности, модернизация инженерно-коммуникационных сооружений и капитальный ремонт зданий Кабинета Министров Республики Узбекистан, новое строительство зданий и сооружений, находящихся в ведомости Аппарата Президента Республики Узбекистан, проекты строительства Республиканского учебно-научного центра диетологии при Ташкентской медицинской академии осуществлены по его проектам.

Под его авторством разработана проектно-сметная документация капитального ремонта и строительства коттеджей на территории резиденции "Куксарай", комплекса ведомственных зданий и сооружений Аппарата Президента Республике Узбекистан по улице Султония, капремонта инженерных сетей и обустройства территорий 2-оздоровительного пансионата, реконструкция учебно-научного мемориального комплекса имени первого Президента Республики Узбекистан, города Нурафшан, а также нового административного здания военной части Национальной гвардии.




**Qarshi markaziy maydoni kuranti.**
Loyiha bosh arxitektori:
B. Miraliyev

**Куранты на центральной площади г. Карши.**
Главный архитектор проекта:
Б. Миралиев

Loyiha muallifi: B. Miraliyev

Автор проекта: Б. Миралиев













# Gulshaira Magametova

Gulshaira Magametova M-3 ASO loyihalari bosh arxitektori. Qahramonimiz o‘zbek ziyolilari istiqomat qiladigan Toshkent shahridagi Usta Shirin ko‘chasida dunyoga keldi.

1970-yilda Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 10-maktabni tamomlagan Gulshaira o‘sha yili Toshkent politexnika institutining Arxitektura fakultetiga o‘qishga kirdi. Tirishqoq va intiluvchan qiz oliygohning faol talabasiga aylandi hamda ustozlar saboqlarini o‘ziga dasturilamal qildi. Unga professional arxitektor va loyihachilar L. Lezovskaya, L. Karash, V. Arxangelskiy, V. Kolomenskiy ustozlik qilishdi. G. Magametovaning mukammal talabalik ishlari institut kafedralari fondida saqlanadi. U diplom ishini a’lo baholarga himoya qilib, yuqori ball to‘plagan talaba sifatida loyiha institutini tanlash huquqiga ega bo‘ldi. ToshPIni tamomlab, 1975-yildan buyon “O‘zshaharsozlik LITI” bosh loyiha institutining ASO-2 da ishlab kelmoqda. U ASOda 47 yildan ortiq

# Гульшаира Магаметова

Гульшаира Магаметова – главный архитектор проектов М-3 АСО. Наша героиня родилась в г. Ташкенте, на ул. Уста Ширин, где проживает узбекская интеллигенция.

Гульшаира, окончив школу №10 Шайхантахурского района г. Ташкента 1970 году, в том же году поступила на Архитектурный факультет Ташкентского политехнического института. Получила прекрасное образование. Ее наставники в процессе обучения были бывшие проектировщики, профессионалы-архитекторы: Л. В. Лезовская, Л. Ю. Караш, В. Е. Архангельский, В. Н. Коломенский. Студенческие работы Г. Магаметовой хранились в фондах на кафедрах института. На отлично защитила дипломную работу, у неё было право выбора проектно, как студента с высокими баллами. С 1975 г. после окончания ТашПИ работала в институте “Узшахарсозлик ЛИТИ”, в АСО-2. Проработала более 47 лет в АСО,



**Etnografik muzey. "Navro'z" bog'i.**
Loyiha bosh arxitektori: G. Magametova
Loyiha bosh muhandisi: A. Mamedov

**Этнографический музей. Парк "Навруз".**
Главный архитектор проекта: Г. Магаметова
Главный инженер проекта: А. Мамедов



**"G'alaba" bog'i, Toshkent.**
Loyiha bosh arxitektori: G. Magametova.
Loyiha bosh muhandisi: A. Mamedov

**Парк "Победы", Ташкент.**
Главный архитектор проекта: Г. Магаметова
Главный инженер проекта: А. Мамедов

vaqt davomida arxitektordan loyihalar bosh arxitektorigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 2018-yildan 2022-yil fevral oyigacha institutning bosh arxitektori lavozimida ishladi. Institut rahbariyati ko'magida doimiy ravishda institut buyurtmalari bo'yicha tanlovlar, arxitektorlar loyihalarining batafsil tahlil va muhokamalarini o'tkazishda faol ishtirok etdi. Mehnat faoliyati davomida yosh mutaxassislarni tayyorlashga e'tibor qaratib keldi.

G. Magametova O'zbekiston Respublikasi Arxitektorlar uyushmasi a'zosi. 2010-yildan Sharq mamlakatlari Xalqaro arxitektura akademiyasining muxbir a'zosi. Eng yaxshi me'moriy asar uchun xalqaro va respublika tanlovlari laureati bo'lgan. O'zbekiston arxitektorlar uyushmasi Gran-pri sovrindori. Ko'rik-tanlovga taqdim etilgan barcha loyihalari turli darajadagi diplomlar bilan taqdirlangan. G. Magametova SSSR Arxitektorlar uyushmasi Butunittifoq tanlovi laureati, 1991-yilda "Yilning eng yaxshi loyihasi" bo'yicha Oltin medal va 1-darajali diplom sohibasi. 2009-yilda Toshkent shahridagi NKMK biznes markazi loyihasi uchun "Og'a Xon" mukofotining Gran-Pri sohibasi. Uning nomzodlik loyihasi Nyu-Yorkdagi kutubxonada saqlanadi.

G. Magametovaning mehnatlari davlatimiz tomonidan qadrlanib, "Do'stlik" ordeni, "Shuhrat" medali, "O'zbekiston Mustaqilligining 10 yilligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Uning ishlab chiqilgan eng muhim loyihalari orasida I. Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti 2-sonli terminalini rekonstruksiya qilish va kengaytirish, "Termiz" xalqaro aeroportidagi 400 yo'lovchiga mo'ljallangan yo'lovchi terminali, "Navoiy" xalqaro aeroportida 400 yo'lovchiga mo'ljallangan yo'lovchi terminali binosi rekonstruksiyasi, "Navoiy" xalqaro aeroportidagi intermodal logistika markazi, "Urganch" xalqaro aeroportidagi 600 yo'lovchiga mo'ljallangan kelish va jo'nash terminallari binosi rekonstruksiyasi, "Buxoro" xalqaro aeroporti 400 yo'lovchiga mo'ljallangan Jo'nash terminali binosi rekonstruksiyasi, "Nukus" xalqaro aeroporti 600 yo'lovchiga mo'ljallangan yo'lovchi terminali binosi rekonstruksiyasi, Toshkent shahar "Sharqiy" xalqaro aeroporti HBN loyihasi, Termiz shahri aeroportidagi IIV binosi, "Farg'ona" xalqaro aeroporti kabi yana yuzlab loyihalarni aytish mumkin.

начиная с архитектора до главного архитектора проектов. 2018 г. до февраля 2022 г. занимала должность главного архитектора проектного института. При поддержке руководства института постоянно устраивались конкурсы на заказы института, детальный разбор, анализ проектов архитекторов. Все годы уделяла внимание обучению молодых специалистов, будущих архитекторов.

Член Союза архитекторов Республики Узбекистан. Член-корреспондент Международной академии архитектуры стран Востока с 2010 г. Лауреат Международных и Республиканских конкурсов-смотров на лучшее архитектурное произведение. Обладатель Гран-при Союза архитекторов Узбекистана. Все проекты, представленные на смотры-конкурсы, отмечены дипломами разных степеней. Лауреат Всесоюзного конкурса Союза архитекторов СССР, обладатель Золотой медали и диплома 1-й степени "Лучший проект года" 1991 г., проект Бизнес-центра НГМК в г. Ташкенте отмечен Гран-при – номинатор премии Ага-хана 2009 г. Проект-номинант хранится в библиотеке в Нью-Йорке.

Плодотворная работа Г. Магаметовой была заслуженно отмечена орденом "Дустлик" в 2020 г., медалью "Шухрат" 2017 г., нагрудным знаком "Узбекистон мустакиллигининг 10 йиллиги".

Наиболее значимые разработанные проекты – реконструкция и расширение терминала №2 Международного аэропорта "Ташкент" имени И. Каримова, пассажирский терминал на 400 пас. в час в Международном аэропорту "Термез", реконструкция здания пассажирского терминала на 400 пас. в час в Международном аэропорту "Навои", интермодальный логистический центр в Международном аэропорту "Навои", реконструкция зданий под прилет и вылет пассажирских терминалов на 600 пас. в час в Международном аэропорту "Ургенч", реконструкция здания под прилет пассажирского терминал на 400 пас. в час в Международном аэропорту "Бухара", реконструкция здания под пассажирский терминал на 600 пас. в час в Международном аэропорту "Нукус", проект ТЭР Международного аэропорта "Восточный" в г. Ташкенте, здание УВД в аэропорту г. Термеза, реконструкция здания пассажирского терминала на 400 пас. в час в Международном аэропорту "Фергана" и др.










**Urganch, Termiz, Buxoro xalqaro aeroporti.**
Loyiha bosh arxitektori: G. Magametova.
Loyiha bosh muhandisi: A. Mamedov

**Аэропорты Ургенч, Термез, Навои,**
Главный архитектор проекта: Г. Магаметова
Главный инженер проекта: А. Мамедов



# Axed Mamedov

Ozarbayjonning Shekins tumanida dunyoga kelgan Axed Mamedov ko'p farzandli oilada katta bo'ldi. Otasi o'qituvchi, onasi uy bekasi sifatida yetti farzandni voyaga yetkazishdi. Maktabni a'lochilar qatorida bitirgan Axedning orzu va maqsadi bir jahon edi. Bu orzu uni uzoq yurtlarga borib o'qishga chorladi. Irkutsk qurilish-muhandislik institutini muvaffaqiyatli bitirgan Axed Mamedov taqsimot asosida ushbu shahardagi Qurilish sanoat loyihalash institutiga ishga yuborildi. Amaliyot qisqa bo'lgan bo'lsada, sohada anchagina tajriba orttirdi.

1966-yilda Toshketda qattiq zilzila sodir bo'lib, ko'plab binolar, aholining uy-joylari katta zarar ko'rdi. Minglab aholi uy-joysiz, vatansiz qolib, palatkalarda yashayotgan vaqtlar edi, o'shanda. Bu talofotlar har qanday insonning qalbida do'stlik olovini alangalatib, yordamga shaylantirdi. Axed Mamedov ham o'z ixtiyori bilan O'zbekistonga otlandi. Qo'lidan keladigan muhandislik kasbi orqali o'zbek xalqiga uy-joylar va binolar barpo etish yo'lida o'z hissasini qo'shishga ahd qildi. U Toshkent shahridagi "O'zgosproyekt" institutining arxitektura-qurilish bo'limiga katta muhandis vazifasiga ishga qabul qilindi. Ana shunday murakkab davrda hech narsani o'ylamay boshi bilan ishga sho'ng'igan Axed Mamedov Toshkentdagi zilziladan zarar ko'rgan yoki batamom yaroqsiz holga

# Ахед Мамедов

Родившийся в Шекинском районе Азербайджана, Ахед Мамедов вырос в большой семье. Его отец был учителем, а мать домохозяйкой. Они воспитали семерых детей. Окончив школу с отличием, Ахед вслед за мечтой отправился покорять дальние страны. Ахеда Мамедова, успешно окончившего Иркутский инженерно-строительный институт, направили на работу в Строительно-промышленный проектный институт в этот же город. Несмотря на то, что стажировка была короткой, он приобрел большой опыт в данной области.

В 1966 году в Ташкенте произошло разрушительное землетрясение, сильно пострадали многие здания и дома. Это были годы, когда тысячи людей остались без крова и вынужденно жили в палатках. Эта великая трагедия зажгла огонь дружбы в сердцах людей, которые решили помочь братскому народу. Ахед Мамедов уехал в Узбекистан по собственному желанию. Будучи инженером, он решил внести свой вклад в строительство домов и зданий для узбекского народа. Его приняли на работу старшим инженером в архитектурно-строительный отдел проектного института "Узгоспроект" в г. Ташкенте. В такое непростое время Ахед Мамедов ни о чем не думая, с

kelgan binolarning oʻrnida yangisini barpo etish ishlari bilan band boʻldi.

"Oʻzshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasida yarim asrdan ziyod mamlakat farovonligi va bunyodkorligi yoʻlida mehnat qilib kelayotgan Axed Mamedov jamoada yoshlarning ustozi hisoblanadi. Uning koʻplab shogirdlari bugun boshqa yurt va davlatlarda, shuningdek, respublikamizning turli joylarida kasblarini davom ettirmoqda. E'tiborli tomoni, Axed Mamedovning ikki nafar farzandi ham ota kasbini egallashgan. Ularning biri qurilish arxitektori, yana biri shu sohada dizayner.

U koʻp yillik mehnatlari uchun I darajali "Mehnat faxriysi" koʻkrak nishoni hamda koʻplab faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.

головой окунулся в работу. Он был занят строительными работами на месте разрушенных или непригодных для жизни зданий, работал не покладая рук.

Пройдя полувековой трудовой путь в ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ", Ахед Мамедов сегодня считается почетным наставником, учителем для молодых кадров. Этот человек с большой буквы посвятил всю свою жизнь служению на благо страны и созиданию. Он воспитал целую плеяду талантливых учеников, которые продолжают его дело в других странах, а также в разных уголках нашей республики. Примечательно, что двое детей Ахеда Мамедова пошли по стопам отца. Один из них – архитектор-строитель, а другой – дизайнер в этой области.

За многолетний труд награжден нагрудным знаком "Почетный пенсионер I степени" и многими другими почетными грамотами и благодарственными письмами.



**Zomindagi turar-joy dahasi.**
Loyiha bosh arxitektori: G. Magametova
Loyiha bosh muhandisi: A. Mamedov

**Проект с жилими домами в Замине.**
Главный архитектор проекта: Г. Магаметова
Главный инженер проекта: А. Мамедов



**Jaloliddin Manguberdi xiyoboni, Urganch.**
Loyiha bosh arxitektori: G. Magametova.
Loyiha bosh muhandisi: A. Mamedov



**Аллея Джалалиддина Мангуберди, Ургенч.**
Главный архитектор проекта: Г. Магаметова.
Главный инженер проекта: А. Мамедов



# Ildar Xasanov

Oddiy insonlar qatorida O'zbekistonda yashab, shu yurtning gullab-yashnashi, taraqqiyoti yo'lida arxitektura sohasida mehnat qilib kelayotgan Ildar Xasanov bugungi kunda jamoaning faxri va yoshlarning ustozidir. 1951-yilning yozida Toshkent shahrida o'qituvchilar oilasida dunyoga kelgan Ildar Xasanov onasi – Il Kafilyevnaning mehri va tarbiyasini olib voyaga yetdi.

Ildarning buvasi va buvisi 1932-yil Rossiyadagi ochlik sababli Qozon shahridan Toshkentga "Qizil professura" poyezdi bilan kelishgan. 2-sinfligidayoq Ildarning suratlar chizishga ishtiyoqi borligini payqagan ota-ona rangli qalam va bo'yoqlar, plastilin olib berishadi.

1968-yilda poytaxtdagi 165-sonli umumta'lim maktabini tugallagan Ildar Xasanov Toshkent politexnika institutining Arxitektura va shaharsozlik bo'limiga o'qishga kirdi. Uning ustozlari ichida professorlar – A. Baboxanov, L. Karash, V. Slonim, V. Arxangelskiy, V. Babiyevskiy, V. Nilsen, K. Kryukov, A. Vanke, I. Suxanov, A. Xidoyatov, V. Kolomenskiy va Yu. Pureskiylar bo'lgan. Talabalar ichida izlanuvchanligi bilan ajralib turgan Ildar Xasanov institutni tugatib, ishlash uchun "Sredazgiprotselinstroy" loyihalash instituti huzuridagi Yangi yerlarni o'zlashtirish va

# Ильдар Хасанов

Ильдар Хасанов, работающий в сфере архитектуры уже много лет, сегодня является гордостью коллектива и наставником молодежи. Ильдар Хасанов родился летом 1951 года в семье учителей в Ташкенте, всегда был окружен любовью и заботой своей матери – Иль Кафильевны.

Дедушка и бабушка Ильдара приехали из Казани в Ташкент на поезде "Красная профессура" в 1932 году, во время голодомора в России. Во 2-м классе, заметив в нем способности к рисованию, родители покупают ему разноцветные карандаши, краски и пластилин.

В 1968 году Ильдар Хасанов, окончивший русскоязычную общеобразовательную школу №165 в столице, поступил на отделение Архитектуры и градостроительства Ташкентского политехнического института. Среди его учителей профессора – А. Бабаханов, Л. Караш, В. Слоним, В. Архангельский, В. Бабиевский, В. Нильсен, К. Крюков, А. Ванке, И. Суханов, А. Хидоятов, В. Коломенский и Ю. Пурецкий. После окончания института Ильдар Хасанов был направлен на работу в отдел Освоение новых земель и проектирование строительства при Среднеазиатском проектном институте "Средазги-

qurilishlarni loyihalashtirish bo'limiga ishga yuborildi va 3 yil ichida shu institutda mehnat qildi.

I. Xasanov 1977-yilda "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha institutining Bosh rejalar bo'limida mutaxassis vazifasida faoliyatini davom ettirib, bo'limning tajribali rahbari – Boris Shvaybish boshqaruvida tajribalarini yanada mustahkamladi. U Farg'ona, Marg'ilon va Qo'qon shaharlari bosh rejalari, Surxondaryo viloyatining Termiz, Denov, Jarqo'rg'on va Qumqo'rg'on, Sirdaryo viloyatining Shirin shaharlari, Farg'ona viloyatining Yozyovon, Quvasoy, Beshariq, Toshloq, Yaypan, va So'x shaharlari hamda Andijon va Toshkent viloyatlarining tuman markazlarini loyihalash ishlarining bosh muallifidir.

Bugungi kunda "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasida 46 yildan buyon mehnat qilib kelayotgan Ildar Xasanovni jamoada tajribali arxitektor sifatida hurmat bilan tilga olishadi.

процелинстрой" и проработал там три года.

В 1977 году И. Хасанов продолжил работу специалистом отдела Генеральных планов в ГУ НИИП "Узшахарсозлик", и еще более укрепил свой опыт под руководством заведующего отделом – Бориса Швайбиша. Под руководством этого талантливого человека он стал основным автором проекта генеральных планов городов Фергана, Маргилан и Коканд, а также города Термез, Денау, Джаркурган и Кумкурган Сурхандарьинской области, городов Ширин Сырдарьинской области, поселков Ёзёвон, Кувасой, Бешарик, Ташлок, Яйпан и Сох Ферганской области, районных центров Андижанской и Ташкентской областей.

На сегодняшний день Ильдара Хасанова почитают в коллективе как опытного архитектора, который 46 лет свей трудовой деятельности посвятил служению ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ".





# Remzi Adilov

1955-yilda ziyoli oilada tug'ilgan Remzi Adilov kichik farzand bo'lib, uning otasi Nidjatin Yahyo o'g'li bir umr davlat tashkilotlarida mehnat qildi. Onasi Lutfiya Karimova esa farzandlarining o'qimishli, vatanga foydasi tegadigan insonlar qilib tarbiyalashda bor mehr-muhabbatini berdi.

Xizmat taqozosi bilan O'zbekistonga ko'chib kelgan oilaning boshlig'i energetika sohasida ishlay boshlaydi. Kichik Remzi Yangiyo'ldagi 10-sonli maktabda o'qishini davom ettirdi. Matematika, fizika fanlarini a'lo baholarga o'qigan tirishqoq Remzi badiiy rassomlik to'garagiga qatnadi. U chizgan surat va chizmalar kelajakda undan yaxshigina rassom chiqishidan darak berardi.

Toshkent politexnika institutining Arxitektura fakultetiga o'qishga kirgan Remzi Adilov u yerda yetuk mutaxassislar – Slonim Yevsey, Valentina Manakova, Leonid Karash, Abdulla Boboxonov kabi tajribali professorlardan tahsil oldi.

1978-yilda institutni imtiyozli diplom bilan tugallagan R. Adilov yo'llanma asosida poytaxtdagi shaharsozlik loyiha institutida o'z mehnat faoliyatini boshlab, u yerda Rixard Bleze, Vladimir Berezin kabi tajribali arxitektorlar bilan ishlash baxtiga muyassar bo'ldi.

Bugungi kunda "O'zshaharsozlikLITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasida

# Ремзи Адылов

Родившийся в 1955 году в интеллигентной семье Ремзи Адылов был младшим ребенком. Его отец Яхья, всю жизнь проработал в государственных учреждениях. А мать Лютфие Керимова, всю свою любовь отдавала воспитанию своих детей образованными людьми, приносящими пользу стране.

Глава семьи переехал в Узбекистан по служебной необходимости и начал работать в сфере энергетике. Маленький Ремзи продолжил обучение в школе №10 в городе Янгиюле. Прилежный Ремзи, изучавший математику и физику на отлично, записался в кружок художественной живописи. Картины и рисунки, которые он создавал, указывали на то, что в будущем он станет хорошим художником.

Ремзи Адылов поступил на архитектурный факультет Ташкентского политехнического института, где учился у таких опытных профессоров, как Евсей Слоним, Валентина Манакова, Леонид Караш, Абдулла Бобохонов.

В 1978 году Р. Адилов, окончивший институт с отличием, начал работать в столичном предприятии УзНИИП градостроительства, где ему посчастливилось сотрудничать с такими опытными архитекторами, как Рихард Блезэ, Владимир Березин.

45 yildan buyon mehnat qilib kelayotgan Remzi Adilov yoshlarga ustoz, tajribali mutaxassis hisoblanadi.

Remzi Adilov 1993-1995-yillarda Bo'stonliq tumanining Sijjak qishlog'ida qad ko'targan Prezident qarorgohi, 2004-yilda Urganch shahrida barpo etilgan rasmiy delegatsiyalar qarorgohi, Farg'ona shahridagi Markaziy bank bo'limi, poytaxtimizdagi Singapur universiteti o'quv majmuasi, Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi oliy o'quv yurtlariaro sport majmuasi, Jizzax viloyatidagi turar-joylar, maktablar va maktabgacha ta'lim muassasalari loyihalarini tayyorlagan ijodiy jamoa tarkibida ishtirok etdi.

Remzi Adilov hukumatimiz tomonidan "Do'stlik" ordeni, ko'plab tashakkurnoma va faxriy yorliqlar bilan mukofotlangan.

Сегодня Ремзи Адылов является почетным наставником, он проработал в коллективе ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" порядка 45 лет.

Ремзи Адылов входил в состав творческого коллектива, который запроектировал: в 1993-1995 годах в поселке Сиджак Бостанлыкского района резиденцию Президента, резиденцию официальных делегаций в Ургенче в 2004 году, отделение Центрального банка в Фергане, образовательный комплекс Сингапурского института развития менеджмента в нашей столице, Межвузовский спортивный комплекс в Юнусабадском районе Ташкента, участвовал в реализации проектов резиденций, школ и дошкольных образовательных учреждений в Джизакской области.

Ремзи Адылов награжден орденом "Дружбы" и множеством благодарственных и почетных грамот.





**O'zbekiston Respublikasining Boku shahridagi elchixonasi.**
Loyiha bosh arxitektori: K. Baymuratov
Loyiha bosh muhandisi: A. Axmedov

**Посольство Республики Узбекистана в городе Баку.**
Главный архитектор проекта: К. Баймуратов.
Главный инженер проекта: А. Ахмедов



# Ulug'bek Ilxamov

Me'mor-muhandislik kasbi – qat'iyatli kasbdir. Bu kasb nozik did va yorqin ijodiy tafakkurni, mashaqqatli mehnat va iste'dodni talab etadi. Ulug'bek Ilxamov ana shunday nozik kasb egasi bo'lib yetishdi. 1942-yil 19-avgustda Toshkent shahrida tug'ilib, 1949-yilda Oktabr (hozirgi Shayxontohur) tumanidagi 36-maktabga o'qishga borgan U. Ilxamov Toshkent qurilish texnikumini tamomlagach, 1960-yilda "Uzgosproyekt" respublika loyihalash institutiga ishga kirdi. Ishlash bilan bir qatorda Toshkent politexnika instituti sanoat-fuqaro qurilishi fakultetining sirtqi bo'limida tahsil oldi.

1969-1970-yillarda harbiy xizmatni o'tab, yana institutga ishga qaytgan U. Ilxamov baxtini shu yerdan topdi. Kasbdoshi O'g'iloy Saidova bilan hayotini bog'lab, farzandlar ko'rdi. Ularning 2 nafari bugungi kunda tajribali muhandis-quruvchilardir. Ulug'bek Ilxamov mehnat faoliyatini texnik lavozimdan boshlab, sidqidildan mehnat qildi, ijodiy izlanishlari tufayli korxona boshqaruvi raisi lavozimigacha ko'tarildi. U arxitektura-qurilish bo'limi boshlig'i bo'lib ishlagan davrda malakali mutaxassis, yaxshi tashkilotchi, xodimlarga rahbarlik qilish qobiliyatiga ega shaxs sifatida tanildi. Shu bois, institut rahbari lavozimigacha munosib topilib, 1995-yil apreldan "O'zbekiston shaharsozlik ilmiy-tadqiqot loyiha instituti" direktori, 1996-yil yanvar oyidan boshqaruv raisi lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

U. Ilxamov o'z faoliyati davomida respublikada qad ko'targan ko'plab loyihalarda

# Улугбек Ильхамов

Инженер-строитель – профессия, требующая тонкого вкуса и творческого мышления, трудолюбия и таланта. Улугбек Ильхамов стал обладателем столь искусной профессии. У. Ильхамов родился 19 августа 1942 года в городе Ташкенте, в 1949 году пошел в первый класс 36-школы Октябрьского (ныне Шайхантахурского) района, окончил Ташкентский строительно-технический техникум, в 1960 году получил специальность инженера-строителя и поступил на службу в республиканское проектное предприятие "Узгоспроект". Помимо работы, учился на заочном отделении факультета Промышленно-гражданское строительство Ташкентского политехнического института.

В 1969-1970 годах после службы в армии вернулся в институт, где судьба свела его с прекрасной девушкой. Избранницей Улугбека стала коллега Угилой Саидова, вскоре молодые поженились. Двое их детей пошли по стопам родителей и сегодня они являются высококлассными инженерами-строителями. Трудовую деятельность Улугбек Ильхамов начал с технической должности, усердно трудился. Благодаря своему творческому поиску поднялся до должности председателя правления предприятия. В период работы руководителем Архитектурно-строительного отдела, он был признан квалифицированным специалистом, хорошим организатором, человеком, способным повести за собой всю команду. Поэтому он был признан подходящим на должность руководителя предприятия, и с апреля 1995 года работал директором, а с января 1996 года являлся председателем правления "Узбекского градостроительного научно-исследовательского института проектирования".

Большое внимание он уделял правильному планированию общественных дел, повышению качества проек-

ishtirok etdi. Jumladan, Andijon shahridagi ixtisoslashgan kollej, Buxoro shahridagi Kasaba uyushmasi uyi binosi, To'qimachilik kombinati saroyi, Buxoro shahridagi 4-, 5-, 6-mikrorayonlar loyihasi, Do'rmondagi "Inturist" mehmonxonasi va katta majlislar zali, Samarqand shahridagi "Mehmonlar qabul uyi", Tolimarjon GRESi turar-joy posyolkasi, Toshkent shahridagi Pediatriya instituti binosining mukammal ta'miri, Surxondaryo viloyatidagi loyihalar, Toshkent shahridagi "Alpomish" sport majmuasi, Madaniy hordiq-suzish majmuasi va Hayvonot bog'ining ta'mirlash-kengaytirish loyihalari, Urganch shahar Al-Xorazmiy ko'chasidagi turar-joylar, madaniy-maishiy majmualar, Uchquduq shahridagi "Rudnik" turar-joylar posyolkasi, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Qo'ng'irot soda zavodi turar-joy majmuasi, Qaynarsoy chekkasidagi qarorgoh binosi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti apparati hovlisidagi turar-joylar, Do'rmon qarorgohi turar-joyi, "Kongress-Xol" majmualari U. Ilhamovning loyihalari asosida amalga oshirilgan.

тно-сметной документации. В частности, специализированный колледж в Андижане, Дом профсоюзов, Дворец текстильного комбината, проект 4-, 5-, 6 микрорайонов в Бухаре, гостиница "Интурист" и большой конференц-зал в Дурмене в Ташкентской области, "Гостевой дом" в Самарканде, жилой поселок Талимарджанской ГРЭС, капитальный ремонт здания института педиатрии в г. Ташкенте, проекты в Сурхандарьинской области, спортивный комплекс "Алпомиш", Парково-плавательный комплекс и проекты по реконструкции и расширению Зоопарка в г. Ташкенте, жилые дома, культурно-бытовой комплекс" по улице Ал-Хоразми в Ургенче, жилой поселок "Рудник" в Учкудуке, жилой комплекс Кунградского содового комбината республики Каракалпакстан, резиденция на окраине г. Кайнарсой, жилые помещения во дворе Аппарата Президента, резиденция Дурмень, комплексы "Конгресс-холл" реализованы по проектам У. Ильхамова.







# Olga Yuldasheva

Olga Yuldasheva ishda talabchan, qat'iyatli, intizom masalasida qattiqqo'l, lekin vaqti kelganda onadek mehribon, yoshlarni doim qo'llab-quvvatlaydigan inson. Milliy qadriyatlarimiz bo'lgan ustoz-shogird an'analarini qariyb yarim asrki "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasida davom ettirib kelayotgan Olga Yuldasheva aslida yoshlikdan sport sohasi faoli bo'lib, hatto O'rta Osiyo miqyosidagi chempionatlar, spartakiadalarda voleybol, basketbol, badminton kabi sport yo'nalishlarida ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallagan sportchi edi. Uning sport sohasidagi iqtidori "O'zgosproyekt" davlat korxonasining ko'p sonli jamoasiga sport sohasi mutaxassisi bo'lib ishga kelishiga sabab bo'ldi.

Olga loyihalash institutiga ishga kelgach, arxitektura va qurilish sohasi mutaxassislari bilan faoliyat olib borgani bois, loyihalash ishlariga qiziqib qoldi. U sport bilan birga, arxitektura sohasining nozik sir-asrorlarini

# Ольга Юлдашева

Ольга Юлдашева требовательна, настойчива, строга в вопросах дисциплины, но, когда нужно, добра как мать и всегда поддерживает молодежь. Ольга Васильевна за почти полвековую деятельность в "УзшахарсозликЛИТИ", ведет активную деятельность в спортивной жизни предприятия. Она призер Азиатских чемпионатов, спартакиад по волейболу, баскетболу, бадминтону. Ее талант в области спорта побудил работать спортивным специалистом в большом коллективе государственного предприятия "Узгоспроект".

В процессе работы Ольга увлеклась проектированием, так как тесно работала со специалистами в области архитектуры и строительства. Наряду со спортивной деятельностью она постигла тонкости архитектуры. После того, как она стала уверенней в своих силах, поступила на Архитектурно-строительный

o'rgandi. O'ziga ishonch hosil qilgach, Toshkent politexnika institutining Arxitektura va qurilish fakultetiga o'qishga kirdi.

1971-yilda kechki bo'limni muvaffaqiyatli tugallagan Olga shu korxonaning Bosh rejalar bo'limida mutaxassis sifatida o'z faoliyatini davom ettirdi. Ko'p yillar mobaynida sohada tajriba orttirdi, ko'plab shahar va shaharchalarning bosh reja loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etdi. U texnik ishlar mutaxassisligidan katta arxitektor vazifasigacha ko'tarildi.

Ayni paytda oliy toifali loyiha bosh arxitektori vazifasida faoliyat ko'rsatayotgan Olga Yuldasheva 1989-yildan buyon respublikamizning Jizzax va Qashqadaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi bosh reja loyihalarini ishlab chiqishda, shahar va shaharchalarning 20-25 yil muddatdagi istiqbolli rivojlanish bosh rejalari ustida ishladi. Ushbu loyihalar birmuncha murakkab bo'lib, aholining 20 yillik o'sishi va ko'payishini, talab va takliflarini o'rgangan holda, aholiga yashash qulayliklariga ega imkoniyatlar yaratish, kanalizatsiya, ichimlik suvi va kommunikatsiyalarni hisobiy davr asosida o'rganilib loyihalashtiriladi.

Jamoada ustoz va tajribali mutaxassis sifatida hurmat-e'tibor qozongan Olga Yuldasheva doim qizg'in ish ustida. Uning mehnati "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasi rahbariyati tomonidan faxriy yorliqlar va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.

факультет Ташкентского политехнического института.

В 1971 году Ольга Васильевна, успешно окончившая вечернее отделение, продолжила свою работу специалистом отдела Генеральных планов родного предприятия. Имеет многолетний опыт работы в данной сфере, участвовала в разработке проектов генеральных планов многих городов и поселков. Прошла путь от технического специалиста до старшего архитектора.

С 1989 года, работая главным архитектором проекта высшей категории, трудилась над разработкой проектов генеральных планов Джизакской и Кашкадарьинской областей и Республики Каракалпакстан, занималась генеральными планами на перспективное развитие городов и поселков на 20-25 летний период. Эти сложные проекты разрабатываются после изучения 20-летнего роста и увеличения, спроса и предложения населения исходя из расчетного периода создания возможностей населения жилыми помещениями, канализацией, питьевой водой и коммуникациями.

Заслужившая уважение в коллективе как педагог и опытный специалист, она находится в постоянном поиске. Ее работа была отмечена руководством ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" почетными грамотами и благодарственными письмами.





# INSTITUTNING TURLI YILLARDAGI RAHBARLARI

**Zikrilla Zakirovich Kalanov,**
1953-1956-yillarda

**Mahmud Saidovich Saidov,**
1957-1963-yillarda

**Isak Vahidovich Israilov,**
1963-1975-yillarda

**Aziz Valiyevich Ganiyev,**
1975-1990-yillarda va 1994-yilning noyabr-dekabr oylarida

**Mirzaahmad Mirusmanovich Mirusmanov,**
1990-1991-yillarda

**Marat Dehkanovich Hakimov,**
1991-1995-yillarda

**Ulug'bek Husanovich Ilxamov,**
1996-2000-yillarda

**Shuhrat Tursunovich Abdukamilov,**
2000-2006-yillarda

**Ruslan Alimovich Muksimov,**
2006-2008-yillarda

**Evald Fridrixovich Lenneshmidt,**
2008-2010-yillarda

**Shuxratxo'ja Rahmatjonovich Xashimov,**
2010-2012-yillarda

**Shadiyor Tursunovich Shanazarov,**
2012-2013-yillarda

**Baxrom Ubayevich Abdullayev,**
2013-2017 yillarda

**G'olib G'apporovich Majidov,**
2017-2021 yillarda

**Bobir Hamidovich Elmuradov,**
2021-yilning dekabr oyidan boshlab.

# РУКОВОДИТЕЛИ ИНСТИТУТА В РАЗНЫЕ ГОДЫ

**Зикрилла Закирович Каланов,**
1953 – 1956 годы

**Махмуд Саидович Саидов,**
1957 – 1963 годы

**Исак Вахидович Исраилов,**
1963 – 1975 годы

**Азиз Валиевич Ганиев,**
1975 – 1990 годы, а также ноябрь-декабрь 1994 года

**Мирзаахмад Мирусманович Мирусманов,**
1990 – 1991 годы

**Марат Дехканович Хакимов,**
1991 – 1995 годы

**Улугбек Хусанович Ильхамов,**
1996 – 2000 годы

**Шухрат Турсунович Абдукамилов,**
2000 – 2006 годы

**Руслан Алимович Муксимов,**
2006 – 2008 годы

**Эвальд Фридрихович Леннешмидт,**
2008 – 2010 годы

**Шухратхужа Рахматжанович Хашимов,**
2010 – 2912 годы

**Шадиёр Турсунович Шаназаров,**
2012 – 2013 годы

**Бахром Убаевич Абдуллаев,**
2013 – 2017 годы

**Голиб Гаппорович Маджидов,**
2017 – 2021 годы

**Бобир Хамидович Элмурадов,**
с декабря 2021 года.

# Institut faoliyatining ko‘p yillik ko‘zgusi

# Отражение многолетней деятельности института





Muzeylar o‘tgan ajdodlarimiz tarixi, yuksak ma’naviyati va madaniyati bilan kelajak avlodni yaqindan tanishtirish orqali ularning milliy g‘urur va e’tiqodlarini tarbiyalashda, vatanparvarlik g‘oyalarini shakllantirish hamda ijtimoiy-siyosiy hayotlarida muhim o‘rin tutadi.

"O‘zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasining tajribali mutaxassislari tashabbusiga ko‘ra, 2018-yilda institutning 90 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan mazkur muzey ham aynan shu maqsadda bunyod etildi. Muzey eksponatlari qatoridan joy olgan tarixiy hujjatlar, namunali loyihalar, chizmalar, fotostendlar, tarixiy suratlar, albomlar, ilmiy-siyosiy qo‘lyozmalar bugungi kunda nafaqat soha xodimlarining, balki qurilish va arxitektura hamda loyihalash sohasiga qiziqadigan va shu sohada ilmiy ish hamda tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassislar, magistrlar va doktorantlar hamda oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun ham qo‘llanma, ham o‘rganish, ham tarixdan voqif bo‘lish hamda

Музеи рождаются и живут благодаря чувству, что возможности человеческой памяти ограничены, спонтанной памяти нет, значит – нужно создавать архивы, нужно отмечать годовщины, организовывать празднования.

Вчерашние разработки стали быстро устаревать, и предприятия задумались об истоках и наследии, желая закрепить связь между временами. Именно преследую эти цели в 2018 году, по случаю 90-летия института по инициативе ведущих специалистов ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" был организован музей предприятия. Исторические документы и фотографии, типовые проекты, чертежи, фотостенды, альбомы, научно-политические рукописи, которые занимают место среди музейных экспонатов предприятия, сегодня служат руководствами, как учебными, так и историографическими, не только для работников отрасли, но и для профессионалов, интересующихся сферой строительства, архитектуры и про-

ma'lumotlarni shakllantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Ayniqsa, eksponatlar qatoridan joy olgan institutning katta temir – "Oltin kitob"i, korxona tashkil topgan 1928-yildan boshlangan uning tuzilmalari, bo'linmalari va korxonaga rahbarlik qilgan shaxslarning portretlari, respublikamizdagi katta va kichik shaharlarning qurilish loyihalari, arxitektura va qurilish bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan namunali loyihalar albomlari, chop etilgan maqolalar faxriy kitobi, foydalanilgan qo'l mashinkalari, fotokamera va fotoapparatlar, fototasvir albomlari, loyiha tikuv mashinasi, muqovalash uskunasi, 1940-yilda ishlab chiqilgan Toshkent shahrining 3 yillik rekonstruksiya loyihasi to'plami sizni hayratga solishi aniq.

Shuningdek, Gazli va Spitak zilzilalari suratlar albomi, ustaxonalarning namunali loyihalar pasport yig'malari, 1940-1945-yillarda qo'llanilgan informatsiya tarqatish uskunasi, loyihalar maketlari, jamoalarning suratli doskalari, arxitektura maktabini yaratgan fidoyi insonlar haqidagi ma'lumotlar hamda 1928-yildan boshlab, bugungi kungacha rivojlanib, ravnaq topib kelayotgan "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasining qurilish va arxitektura sohasida Yangi O'zbekiston taraqqiyotigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan muzey kelgusida kelajak avlodning shu sohada faoliyat ko'rsatishlarida muhim hujjat, nazariyot, amaliyot hamda o'rganish vazifalarini o'tashi shubhasiz.

ектирования, а также для специалистов, магистрантов и докторантов, проводящих научные исследования.

Особенно в большой книге института, занимающей свое место в ряду значимых экспонатов музея – "Золотой книге" – содержатся важные сведения о структуре предприятия, организованного в 1928 году, его подразделениях, портреты лиц, руководивших предприятием, строительные проекты больших и малых городов нашей республики, альбомы типовых проектов, разработанных архитектурными и строительными подразделениями, почетная книга опубликованных статей, использованные ручные машинки, фотокамеры и фотоаппараты, фотоальбомы, проектная швейная машина, оборудование для переплета, пакет проектов по 3-х годичной реконструкции города Ташкента.

А также, разработанный в 1940 году альбом фотографий землетрясений в Газли и Спитаке, сборники паспортов типовых проектов мастерских, оборудование для распространения информации, использовавшееся в 1940-1945 годах, макеты проектов, доски с фотографиями коллективов, информация о самоотверженных людях, создавших архитектурную школу, а также важные документы об истории и развитии проектной организации ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" в сфере строительства и архитектуры, начиная с 1928 года, вплоть до развития Нового Узбекистана, которые несомненно послужат теоретическому и практическому изучению данной сферы будущим поколением.



# Institutni xorijda ham tanishadi

# Институт знают и зарубежом



**O'zbekiston Respublikasining Dushanbe shahridagi elchixonasi.**
Loyiha bosh arxitektorlari: M. Mamarasulova, K. Baymuratov
Loyiha bosh muhandisi: A. Ahmedov

**Посольства Республики Узбекистан в городе Душанбе.**
Главные архитекторы проекта: К. Мамарасулова, К. Баймуратов
Главный инженер проекта: А. Ахмедов

Aytish joizki, "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasining tajribali mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan qurilish loyihalari nafaqat O'zbekiston Respublikasi miqyosida, balki xorijiy mamlakatlar qurilishlarida ham qo'llanilmoqda.

Jumladan, o'tgan 2017-yilda institutning tajribali arxitektori X. Nosirxodjayev va muhandis R. Allayarovlar tomonidan Qirg'iziston Respublikasi O'sh shahridagi 630 o'rinli Alisher Navoiy nomidagi 18-sonli umumiy ta'lim maktabining hamda 2018-yilda Tojikiston Respublikasining Spitamen tumanidagi 630 o'rinli umumiy ta'lim maktab majmuasining qurilish loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. 2020-yilda arxitektor A. Zoxidov muallifligida Qozog'iston Respublikasi Ostana shahridagi O'zbekiston Respublikasi elchixona binosi majmuasi loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

2021-yilda muhandis A. Axmedov va arxitektor M. Mamarasulovalar muallifligida O'zbekiston Respublikasining Tojikiston Respublikasidagi elchixona binosi loyiha-

Эффективное управление проектом в строительстве является ключевым аспектом для успешной реализации строительных проектов. Сегодня эксперты ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" специализируются на разработке и внедрении планов управления проектом, которые учитывают все аспекты строительства по проекту. Каждый этап строительства выполняется в соответствии с высокими стандартами и требованиями. Строительные проекты разрабатываются не только в масштабах страны, но и для зарубежных партнеров.

В частности, в 2017 году опытным архитектором института Х. Носирходжаевым и инженером Р. Аллаяровым были с успехом разработаны строительный проекты школы №18 на 630 мест в городе Ош Республики Кыргызстан, а также в 2018 году проект общеобразовательного школьного комплекса на 630 мест Спитаменского района Республики Таджикистан. Также, в 2020 году под авторством архитектора А. Зохидова в городе Астана

si, 2022-yilda esa muhandis A. Axmedov va arxitektor K. Baymuratovlar muallifligida O'zbekiston Respublikasining Abu-Dabi shahridagi elchixona binosi majmuasi hamda arxitektor I. Turg'unbayev hamda muhandis Sh. Zuxriddinovlar muallifligida Qirg'iziston Respublikasi O'sh shahridagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomli O'sh Davlat Akademik musiqali drama teatrining mukammal ta'mirlash loyihasi, 2023-yilda muhandis A. Axmedov muallifligida Ozarbayjon Respublikasi Boku shahridagi O'zbekiston Respublikasi elchixonasi binolarining qurilish loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Bundan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda shaharsozlik borasida zamon talablari darajasida ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda zalvorli qadam tashlayotgan "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasining mehnatkash jamoasi bundan keyin ham xorijiy va mahalliy hamkorlik asosida mamlakatimiz taraqqiyoti va bunyodkorligi yo'lida e'tiborga molik loyihalarni amalga oshiradi.

Республики Казахстан был воплощен в жизнь проект здания посольства Республики Узбекистан.

В 2021 году под авторством инженера А. Ахмедова и архитектора М. Мамарасулова с успехом претворен в жизнь проект здания посольства Республик Узбекистан в Республике Таджикистан, в 2022 году под авторством инженера А. Ахмедова и архитектора К. Баймуратова разработан строительный проект посольства Республики Узбекистан в городе Абу-Даби, под авторством архитектора И. Тургунбаева и инженера Ш. Зухриддинова были разработаны совершенные проекты ремонта Академического театра музыкальной драмы имени З. М. Бабура в городе Ош Республики Кыргызстан, а также в 2023 году зданий посольства Республики Узбекистан в городе Баку Республики Азербайджан.

Это яркое подтверждение тому, что сегодня, применяя передовые инновационные технологии в градостроительстве на уровне требований времени, ступающий твердой поступью трудовой коллектив ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" используя опыт зарубежного сотрудничества, будет самотверженно трудится для дальнейшего развития нашей страны и воплотит в жизнь еще более масштабные проекты. Можно с уверенностью сказать, коллектив болеет своим делом стремлясь созидать, создавать новые проекты и строить дома во имя процветания и будущего нашей страны.





**Abu-Dabidagi O'zbekiston Respublikasi elchixonasi binosining loyihasi.**
Loyiha bosh arxitektori: K. Baymuratov
Loyiha bosh muhandisi: A. Ahmedov

**Проект здания посольства Республики Узбекистан в городе Абу-Даби.**
Главный архитектор проекта: К. Баймуратов
Главный инженер проекта: А. Ахмедов

# Zamonaviy texnologiyalar yordamida kelajak loyihalari yaratilmoqda

# Изучая современные технологии проектирует будущее





"O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasi tarkibidagi Shuxratxo'ja Xoshimov rahbarlik qilayotgan Arxitektura va qurilish loyihalarini ishlab chiqish boshqarmasi (2022-yilgacha Arxitektura-qurilish bo'limi nomi bilan faoliyat yuritgan) 2023-yildan boshqarma maqomiga ega bo'ldi. Jamoada 100 nafarga yaqin yuqori malaka va tajribaga ega arxitektor-muhandislar bunyodkorlik yo'lida mehnat qilmoqda.

Boshqarma zamonaviy arxitektura va shaharsozlik talablari, davlat standartlari hamda qurilish me'yorlari, raqamli texnologiyalar va dasturiy mahsulotlarni ilmiy asoslangan ravishda qo'llagan holda: aholi punktlarining zamonaviy qiyofasini shakllantiruvchi shaharsozlik hujjatlarini, hududlarni qurishning tarxlarini, uy-joylar, ijtimoiy-maishiy hamda turli maqsadlar-

На современном этапе архитектурное и строительное проектирование зданий и сооружений в стране разрабатывается Управлением по разработке архитектурно-строительных проектов ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" – республиканской головной проектной организацией (до 2022 года Архитектурно-строительный отдел) под руководством Шухратхужа Хашимова.

Управление, используя научно обоснованные требования современной архитектуры и градостроительства, государственные стандарты и строительные нормы, цифровые технологии и программные продукты, обеспечивает качественную разработку: градостроительных документов, формирующие современный облик населенных пунктов; даты застройки территорий; про-



dagi ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurilishi, rekonstruksiyasi va kapital ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini, bino va inshootlarning texnik holatini ko'rikdan o'tkazish va tekshirishni, bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini tiklash va mustahkamlash loyihalarini sifatli ishlab chiqilishini ta'minlamoqda.

Jumladan, boshqarma tomonidan Toshkent shahridagi "Panorama" kinoteatri va "Samarqand-darvoza" choyxonasi, Toshkent shahridagi "G'alaba" va "Navro'z" bog'lari, Farg'ona, Namangan, Termiz, Urganch, Navoiy va Buxoro shaharlaridagi xalqaro aeroportlar, Nukus shahridagi Saviskiy nomidagi muzey, Toshkent shahridagi Oliy majlisi Senati binosi, Toshkent shahridagi Islom Karimov nomidagi xalqaro aeroporti, Toshkent shahridagi Shahidlar xotirasi memorial majmuasi, Shahrisabz shahridagi Amir Temur tarixiy majmuasi, Zomin tumanidagi "Zomin" turar-joy majmuasi, Nurota shahridagi "Chashma" tarixiy majmuasi, "O'zbekfilm" kinostudiyasi binolari, Farg'ona shahridagi "Yangi O'zbekiston" turar-joy massivi, Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi "Yangi O'zbekiston" massivi, Buxoro va Andijon shaharlaridagi 4000 o'rinli universal sport majmualari, Tojikiston, Qozog'iston, BAA va Ozarbayjon davlatlaridagi O'zbekiston Respublikasining elchixonalari, shuningdek, Urganch shahrida bunyod etilgan Jaloliddin Manguberdi

ектно-сметной документации на строительство, реконструкцию и капитальный ремонт объектов жилищной, социально-бытовой и различного назначения социальной и инженерной инфраструктуры; осмотра и обследования технического состояния зданий и сооружений,





haykali qad ko‘targan 10 gektarli yashil xiyobon majmuasi va boshqa ko‘plab obyektlar bo‘yicha loyiha ishlari amalga oshirilgan.

Boshqarmada samarali mehnat qilgan va faoliyat yuritib kelayotgan yuqori malakali arxitektor-muhandislar – Gulshaira Magametova, Axed Mamedov, Baxtiyor



а также обеспечивает качественную разработку проектов восстановления и усиления несущих конструкций зданий и сооружений.

В частности, управлением разработаны следующие архитектурно-строительные проекты: кинотеатр "Панорамный" и чайхана "Самарканд-дарвоза" в г. Ташкенте, парки "Галаба" и "Наврyз" в г. Ташкенте, международные аэропорты в городах Фергана, Наманган, Термез, Ургенч, Навои и Бухара, музей имени Савицкого в г. Нукус, здание Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан, международный аэропорт имени Ислама Каримова в г. Ташкенте, мемориальный комплекс Памяти жертв репрессий в г. Ташкенте, исторический комплекс Амира Темура в г. Шахрисабз, жилой комплекс "Замин" в Заминском районе, исторический комплекс "Чашма" в городе Нурата, здания киностудии "Узбекфильм", жилой комплекс "Новый Узбекистан" в городе Фергана, массив "Новый Узбекистан" в Шараф-Рашидовском районе Джизакской области, универсальные спортивные комплексы на 4000 мест в городах Бухара и Андижан, здания посольств Республики Узбекистан в Таджикистане, Казахстане, ОАЭ и Азербайджане, проектные работы по комплексу зеленой аллеи площадью 10 гектаров вокруг памятника Джалалиддину Мангуберди, и многим другим объектам в городе Ургенче.

Miraliyev, Xayriddin Nosirxodjayev, Asxad Zoxidov, Remzi Adilov, Ulug‘bek Ilxamov kabi mutaxassislarning ko‘p yillik tajribasi sohada mehnat qilayotgan yoshlarga amaliyot maktabini o‘tamoqda. Jamoadagi tajribali mutaxassislar – Gulshaira Magametova, Abdulaziz Azimov, Ilgiz Turg‘unboyev va Shahzod Nosirovlarning 2022-yilda Dubay shahrida, Turkiya davlatida amaliyot va tajriba o‘taganlari ishlab chiqilayotgan loyihalarning mohiyati va saviyasini yuqori darajaga ko‘tarishda o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

“O‘zshaharsozlik LITI” bosh loyiha instituti davlat muassasasi va Yaponiya, Xitoy, Belorus, Qozog‘iston davlatlari korxonalari o‘rtasida loyiha ishlarini takomillashtirish hamda bino va inshootlarning seysmik hududlardagi mustahkamligini oshirish bo‘yicha memorandumlar imzolanganligi loyiha ishlarida ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy standartlar, qurilish me’yorlari hamda dasturiy mahsulotlardan keng ko‘lamda foydalanish hamda loyihalar sifatini tubdan o‘zgartirish imkonini yaratdi.

Bundan keyin ham boshqarma jamoasi yangi O‘zbekistonda zamonaviy turar-joylar, ijtimoiy-maishiy obyektlarni loyihalashda ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash hamda uyushqoqlik va hamjihatlikda yurt obodligi hamda bunyodkorlik yo‘lida izchil tizimli faoliyatni amalga oshirishda davom etadi.

Примечательно, что без высококвалифицированных кадров сложно говорить об успехе развития строительной отрасли. Важная роль в подготовке кадров и соответствия уровня профессиональной подготовки молодых специалистов отведена мастерам своего дела, таким как Гульшаира Магаметова, Ахед Мамедов, Бахтиёр Миралиев, Хайриддин Насирходжаев, Асхад Захидов, Ремзи Адылов, Улугбек Ильхамов. Ярким примером тому, в 2022 году Гульшаира Магаметова, Абдулазиз Азимов, Ильгиз Тургунбаев и Шахзод Носиров с успехом прошли международные стажировки в ОАЭ и Турции, что несомненно отразилось на качестве разрабатываемых проектов.

Кроме того, ГУ “Узшахарсозлик ЛИТИ” подписаны меморандумы с предприятиями Японии, Китая, Белоруссии, Казахстана по совершенствованию проектных работ и повышению прочности зданий и сооружений в сейсмических районах, что способствовало широкому применению передового зарубежного опыта проектных работ, инновационных технологий и современных строительных стандартов, программных продуктов и позволило кардинально изменить качество проектов.

Сегодня Управлением реализуется последовательная работа по проектированию современных жилых домов, социально-бытовых объектов с применением передового зарубежного опыта для улучшения качества жизни, благополучия и дальнейшего процветания нашего народа.



# Ustaxonalar




Boshqarma tarkibida 7 ustaxona bo'lib, har birining o'z vazifasi bor. **1-ustaxona** Arxitektura va qurilish loyihalarini ishlab chiqish boshqarmasi tarkibida faoliyat ko'rsatgan tajribali muhandis E. Patlis va arxitektor R. Bleze tashabbusi bilan 1965-yilda tashkil etilgan. Turli davr va yillarda ustaxonada ko'plab tajribali xodimlar faoliyat ko'rsatdilar. Ana shunday loyihalar qatoriga Toshkent shahrida amalga oshirilgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi "Sharq" nashriyot uyi, 1975-yilda amalga oshirilgan "Yoshlar uyi" loyihasi, A. Navoiy nomli kutubxona, "Jamoat hisob-kitob markazi" binosi, Iqtisodiy tadqiqotlar instituti, 1986-yilda amalga oshirilgan Buxoro viloyati hokimligi binosi, Toshkent viloyati Chorvoq suv ombori va Bo'kachuladagi 850 o'rinli mehmonxonalarning loyihalari kiradi.

1990-yillarda loyiha bosh muhandisi – R. Kim, loyiha bosh arxitektori – R. Adilov, arxitektorlar – L. Xristich, N. Kuranova, E. Mukimova, muhandislar – T. Bondarenko, N. Ponomareva, O. Ratanova, M. Muxamadiyeva, M. Izergina, M. Axmedova, R. Xalfina kabi

# Мастерские

**Мастерская № 1** была создана в 1965 году в составе управления по разработке архитектурно-строительных проектов. Инициаторами создания мастерской были работавшие тогда опытный инженер Е. Патлис и архитектор Р. Блезэ. С тех пор расширилась численность коллектива мастерской, увеличился объем работ. В разные периоды и года в мастерской работали опытные сотрудники, труды которых ценятся по сей день. Среди проектов мастерской можно выделить следующие: Издательский дом "Шарк", "Дома молодежи", здания "Общественного вычислительного центра", "Института экономических исследований", хокимията Бухарской области.

В 1990-е годы работу мастерской продолжили такие специалисты, как главный инженер проекта Р. Ким, главный архитектор проекта – Р. Адылов, архитекторы – Л. Христич, Н. Куранова, Е. Мукимова, инженеры – Т. Бондаренко, Н. Пономарева, О. Ратанова, М. Мухамадиева, М. Иванова, М. Ахмедова, Р. Халфина.

mutaxassislar ustaxonaning ishini davom ettirdilar. Hozirgi paytda, loyihalash ishlarida samarali mehnat qilib kelayotgan bosh muhandis – A. Axmedov, bosh arxitektorlar – K. Baymuratov va R. Adilov, arxitektorlar – A. Sharipova, L. Podvarkova, A. Teshabayev, S. Gayratov, S. Jafarov, muhandislar – M. Ivanova va A. Seit-Fazilovalar peshqadamlikni qo'ldan boy bermay Yangi O'zbekistonning zamonaviy qiyofasini yaratish va bunyodkorlik yo'lida binolar, aholi turar-joylari va inshootlarning mukammal loyihalarini yaratish ustida izlanmoqdalar.

**2-ustaxona** o'z faoliyati davomida arxitektura-qurilish loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha boshqarma topshiriqlarini sidqidildan bajarib, mamlakatimizdagi jamoat bino va inshootlari, turar-joy majmualari loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, tajribali kadrlar tayyorlamoqda. Jamoada ishlaydigan tajribali arxitektorlar – N. An, Sh. Abdullayeva, A. Kaurov, E. Kuksa, R. Alirzayeva, E. Midinova, F. Navruzov, muhandislar – L. Borisova, N. Abdullayeva, A. Axmedova, B. Balmuhamedov, D. Temirovalar ishtirokida butun respublika bo'ylab qurilish va obodonlashtirish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirildi.

В настоящее время, не теряя лидерских позиций, над созданием современного облика Нового Узбекистана, проектированием совершенных проектов зданий, жилых домов и сооружений плодотворно работают главный инженер А. Ахмедов, главные архитекторы К. Баймуратов и Р. Адылов, архитекторы А. Шарипова, Л. Подваркова, А. Тешабаев, С. Гайратов, С. Жафаров, инженеры М. Иванова и А. Сеит-Фазилова.

**Мастерская № 2**, в ходе своей деятельности добросовестно выполняет поручения Управления по разработке архитектурно-строительных проектов, успешно реализует проекты общественных зданий и сооружений, жилых комплексов на территории страны, а также занимается подготовкой молодых кадров. С участием опытных архитекторов – Н. Ан, Ш. Абдуллаевой, А. Каурова, Е. Кукса, Р. Алирзаева, Э. Мидинова, Ф. Наврузова, инженеров – Л. Борисовой, Н. Абдуллаева, А. Ахмедова, Б. Балмухамедова, Д. Темировой – были реализованы многие проекты по строительству и благоустройству по всей республике.






Qolaversa, keyingi yillarda ustaxona jamoasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan Toshkent shahar Markaziy harbiy gospitali, Surxondaryo viloyati Termiz shahri Sh. Rashidov ko'chasida joylashgan "Yosh chegarachilar" akademik litseyi, Termiz davlat universiteti axborot texnologiyalari fakulteti, Buxoro viloyati Olot tumani "Madaniyat va maorif" markazi, Xorazm viloyati Urganch shahridagi "Zamonaviy san'at" muzeyi binolarini rekonstruksiya qilish va yangidan qurish loyihalari muvaffaqiyatli ishlab chiqildi.

**3-ustaxona** tarixi 1990-yillarning sentabr oyiga borib taqaladi. O'shanda endigina dekret ta'tilidan ishga chiqqan yoshgina Gulshaira 2-ustaxonadan uchinchisiga o'tgan payt edi. Salohiyatli, mahoratli yosh arxitektor darhol 3-ustaxona va loyihalar rahbari etib tayinlandi. Bu vaqtga kelib, ustaxona ish hajmi kamligi va mavjud qarzdorlik tufayli yopilish arafasida edi. Axed Mamedov bo'lim bosh mutaxassisi va loyiha bosh muhandisi vazifalarida ishlardi. Ustaxonaning yillar davomida shakllangan asosiy tayanch ustunlari bo'lmish G. Magametova, loyiha bosh muhandislari – A. Ma-

Кроме того, за последние годы коллектив мастерской успешно разработал проекты строительства нового здания Центрального военного госпиталя в г. Ташкент, который получил высокую оценку руководства Республики Узбекистан, реконструкцию и новое строительство Академического лицея "Юные пограничники" на улице Ш. Рашидова в городе Термез Сурхандарьинской области, здания факультета информационных технологий Термезского государственного университета, "Центра культуры и просвещения" Алатского района Бухарской области, Музея современного искусства в городе Ургенч Хорезмской области.

Датой рождения **Мастерской №3** считается сентябрь 1990 г., руководителем мастерской и проектов была назначена Г. Магаметова, перешедшая из мастерской №2. Мастерскую до этого должны были расформировать ввиду отсутствия работы и долгов. А. Мамедов совмещал работу главного специалиста отдела и главного инженера проекта мастерской. С годами Мастерская №4 АСО-2 из 7 человек превратилась в большую мастерскую №1 АСО-2 из 15 человек с дополнитель-

medov, R. Xakimova, konstruktorlar I. Xvan va O. Samosled institutda 35 yildan ortiq yelkama-yelka mehnat qilishdi. Shuningdek, A. Azimov, G. Tangaboyeva, M. Raxmatova, Sh. Usmonov, A. Akchurina, V. Larina, B. Mannonov, konstruktorlar – X. Abdukomilov, R. Yo‘ldoshbekov, X. Mamadaliyev, I. Akbarovlar yosh va qobiliyatli arxitektor-konstruktorlar tayyorlashda jonbozlik ko‘rsatishdi.

Ustaxona jamoat binolarini – Toshkent shahridagi NTMK biznes markazi binosini rekonstruksiya qilish, “O‘zbekfilm” binolari majmuasini rekonstruksiya qilish, “Stells” ofis binosi, Navoiy, Sarosiyodagi mehmonxonalar, Samarqand, Namangan, Farg‘ona aeroportlaridagi rasmiy delegatsiyalarni qabul qilish binolari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Chimyon shahridagi “Baxt” dam olish maskani loyihalashtirishda jonbozlik ko‘rsatishgan.

Arxitektura-qurilish loyihalarini ishlab chiqish boshqarmasining **4-ustaxona**sida e’tiborga molik loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Jamoada ko‘p yillar mobaynida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan tajribali loyiha bosh arxitektorlari – Xayritdin Nosirxodjayev, Asxat Zoxidov, Abdurizo Nazilov, loyiha bosh

но привлекаемыми специалистами, ввиду большой загруженности. Основной костяк мастерской, сложившийся годами: Г. Магаметова – главный архитектор проекта, А. Мамедов – главный инженер проекта, Р. Хакимова – ведущий архитектор, конструкторы И. Хван, О. Самослед, вместе проработавшие в институте более 35 лет, а также способные архитекторы и конструкторы, которых обучали с первых дней после окончания института. Это архитекторы: А. Азимов, Г. Тангабаева, М. Рахматова, Ш. Усманов, А. Акчурина, В. Ларина, Б. Маннонов, конструкторы: Х. Абдукамилов, Р. Юлдашбеков, Х. Мамадалиев, И.Акбаров.

Мастерская проектировала общественные здания (реконструкция здания для Бизнесцентр НГМК в Ташкенте, реконструкция комплекса зданий “Узбекфильма”, здание офиса “Stells”, гостиницы в Навои, здания Приемов официальных делегаций в аэропортах Самарканда, Намангана, Ферганы, зону отдыха “Бахт” в Чимгане для ГТК РУз.

В **Мастерской № 4** Управления по разработке архитектурно-строительных проектов ГУ “Узшахарсозлик ЛИТИ” реа-







muhandisi Zufar Fayzullayev, muhandislar – Zokirjon Qoriyev, Feruza Abduraimova, arxitektorlar – Jamshid Xayrullayev, Bobir Qudratov, Azizxo'ja Xodjayev sohaning murakkabligiga qaramay, kasbiga sadoqat bilan mehnat qilmoqdalar.

Keyingi besh yillikda Jizzax shahridagi "Yangi O'zbekiston" massivi, Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumanidagi Yettitom shaharchasining markaziy qismidagi turar-joylar massivi loyihasi, Xorazm viloyati Urganch tumani Chakkasholikor qishlog'i hududidagi Al-Xorazmiy majmuasi bosh reja qurilishi loyihasi va 9 qavatli aholi turar-joylar loyihasi, Toshkent shahridagi Belarus Respublikasi elchixonasi, "O'zagrolizing" AJ kompaniyasining Toshkent shahri va respublika viloyatlarida joylashgan ma'muriy binolari, Toshkent shahridagi Moskva Davlat xalqaro munosabatlar instituti o'quv binolarining mukammal ta'mirlash loyihalari amalga oshirildi.

Ayni paytda jamoaga ustozlik qilib kelayotgan loyiha bosh arxitektorlari – X. Nosirxodjayev va A. Zoxidovlarning tajriba maktabi yoshlarga dasturilamal vazifasini o'tamoqda.

**5-ustaxona** o'z faoliyati mobaynida boshqarma tomonidan berilgan topshiriqlar asosida respublika hududlarida jamoat binolari va inshootlarni hamda turar-joy majmualari loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. 12 nafar xodim mehnat qilayotgan ustaxonada loyiha bosh arxitektori B. Miraliyev, loyiha bosh muhandisi N. Yegorovlar rahbarligida davlat ahamiyatiga molik bir qancha arxitektura va qurilish loyihalari

лизуются проекты, заслуживающие внимания. Несмотря на сложность отрасли, в коллективе много лет работали преданные профессии опытные главные архитекторы проекта Хайритдин Насирходжаев, Асхат Зохидов, Абдуризо Назилов, главный инженер проекта Зуфар Файзуллаев, инженеры Закиржон Кариев, Феруза Абдураимова, архитекторы Джамшид Хайруллаев, Бобир Кудратов, Азизходжа Ходжаев.

За последние пять лет были реализованы проекты массива "Новый Узбекистан" в городе Джизак, жилого массива в центральной части поселка Еттитом Кокдалинского района Кашкадарьинской области, генплана строительства комплекса "Ал-Хорезми" в районе села Чаккашоликор Ургенчского района Хорезмской области и 9-этажного жилого комплекса, Посольства Республики Беларусь в Ташкенте, капитального ремонта, расположенных в городе Ташкенте и областях республики административных зданий АО "Узагролизинг", учебных зданий Ташкентского филиала Московского государственного института международных отношений. Настоящей школой мастерства для молодых и наставниками коллектива являлись главные архитекторы проекта Х. Насирходжаев и А. Зохидов.

**Мастерская № 5** реализует проекты гражданских зданий и сооружений, а также жилых комплексов на территории республики. В мастерской, где трудятся 12 сотрудников, под руководством главного архитектора проекта Б. Миралиева,

bajarildi. Ayni paytda jamoada faoliyat ko'rsatayotgan Sh. Zuhriddinov, I. Turgunbayev, D. Akramova, Sh. Ganiyev, A. Babaxanova, F. Abdullayev, D. Isroilov, S. Sheyxova, L. Uktamov, M. Ro'zmetov, M. Baxtiyorovlar loyihalash jarayonlari bilan band.

2022-yilning avgust oyida "O'zshaharsozlik LITI" davlat muassasasi tarkibida 5 nafar mutaxassisdan iborat Arxitektura va qurilish loyihalarini ishlab chiqish boshqarmasi (AQLICHB) qoshida binolarning raqamli modeli (BIM) loyihalarini ishlab chiquvchi **6-ustaxona** tashkil etildi. Mazkur ustaxonada Habibullo Mamadaliyev rahbarligida loyiha bosh arxitektori – Mirzarahmon Eshqo'ziyev, muhandislar – Ismoil Ismoilov, Islomiddin Akbarov hamda texnik Diyorbek Tursunovlar faoliyat ko'rsatmoqda. Jamoaning sa'y-harakati bilan 2022-yilda respublika hududlarida 660 va 990 o'rinli maktablarning loyihasi BIM texnologiyasi asosida ishlab chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida namunaviy loyihalar asosida bitta kirish yo'lakka ega bo'lgan 2

главного инженера проекта Н. Егорова был реализован ряд архитектурно-строительных проектов государственного значения. Процессами проектирования на постоянной основе также занимаются осуществляющие свою деятельность в коллективе Ш. Зухриддинов, И. Тургунбаев, Д. Акрамова, Ш. Ганиев, А. Бабаханова, Ф. Абдуллаев, Д. Исроилов, С. Шейхова, Л. Уктамов, М. Рўзметов, М. Бахтиёров.

2022 года в структуре тогда еще ГУ НИИП "Узшахарсозлик" была создана **Мастерская №6** по разработке проектов цифровых моделей зданий (BIM) при Управлении по разработке архитектурно-строительных проектов в составе 5 специалистов. В этой мастерской под руководством Хабибулло Мамадалиева, работают главный архитектор проекта Мирзарахмон Эшкузиев, инженеры Исмоил Исмоилов, Исломиддин Акбаров и техник Диёрбек Турсунов. Усилиями коллектива в 2022 году на основе BIM технологии был разработан проект школ





qavatli kottejlar loyihasi oʻz nihoyasiga yetkazildi.

Oʻtgan yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan **7-ustaxonada** bugungi kunda 6 nafar yetuk mutaxassis faoliyat koʻrsatib kelmoqda. Zamonaviy dasturlar va yangi texnologiyalar asosida faoliyat olib borayotgan jamoada 4 nafar muhandis va 2 nafar texnik mavjud boʻlib, bosh loyiha arxitektori Shahzod Nosirov jamoaga rahbarlik qilib kelmoqda. Ayni paytda, shijoatli yosh mutaxassislardan iborat jamoa oʻz ish faoliyatini jadal suratlar bilan olib bormoqda. Tajribali bosh muhandis-konstruktor Sherbek Nosirov, arxitektorlar Ibrohim Abdullayev, Jasurbek Nasriddinov, Sherzodbek Shohsaidov, Vakil Galautdinov va Shahlo Nabiyeva, muhandislar Javlon Narziyev, Ilhomjon Yoʻldoshevlar gʻayrat bilan mehnat qilmoqdalar.

Hozirgi paytda Surxondaryo viloyatidagi maʼmuriy markaz va viloyat hokimligi yangi binosi hamda Forumlar saroyining qurilish loyihalari, shuningdek, Navoiy shahri aeroportining delegatsiyalarni kutib olish VIP terminali loyihasining ishlab chiqish jarayonlari band boʻlgan yoshlar jamoasi ustaxonaning buguni va kelajagini yaratishmoqda.

на 660 и 990 мест для регионов республики. Также на территории Республики Узбекистан на основе типовых проектов завершен проект 2-х этажных одноподъездных коттеджей.

Во вновь созданной в январе 2022 года **Мастерской № 7** на сегодняшний день работают 6 опытных специалистов. В составе коллектива, работающем по современным программам и новым технологиям, числятся 4 инженера и 2 технических специалиста, возглавляет главный архитектор проекта Шахзод Носиров. Между тем, команда амбициозных молодых специалистов мастерской ведет свою работу интенсивными темпами. С энтузиазмом трудятся опытный главный инженер-конструктор Шербек Насиров, архитекторы Ибрагим Абдуллаев, Жасурбек Насриддинов, Шерзодбек Шохсаидов, Вакил Галаутдинов и Шахло Набиева, инженеры Жавлон Нарзиев, Ильхомжон Юлдашев.

В настоящее время коллектив, состоящий в основном из молодых специалистов, занят процессом проектирования строительства административного центра Сурхандарьинской области, нового здания хокимията области и Дворца форумов, а также разработкой проекта VIP-терминала для приема делегаций аэропорта города Навои.

# Sifatli va mukammal loyihalar yaratish yo'lida...

# Впереди еще более грандиозные и масштабные проекты...



Mamlakatimizda kundan-kunga shahar va qishloqlarning qiyofasi o'zgarib, go'zallashib bormoqda. Ayniqsa, yurtimizda bo'y ko'rsatayotgan yashil xiyobonlar, osmono'par binolar, saroylar-u imoratlar hamda olib borilayotgan ulkan qurilish ishlarida "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasining hissasi beqiyos.

Xususan, institutning Shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish boshqarmasida 70 nafar arxitektor-injener, shaharsoz-arxitektor, kommunikatsiya tarmoqlari mutaxassislari, shaharsoz-iqtisodchilar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jamoaning 70 foizini yoshlar tashkil etgani holda, boshqarmaga tajribali mutaxassis – Aziz Karimov rahbarlik qilib kelmoqda. Boshqarmada "Ustoz-shogird" an'analari yaxshi yo'lga qo'yilgan. E'tiborli tomoni, jamoada mehnat qilayotgan Yelena Sokolova, Baxtiyor Magdiyev, Ildar Hasanov, Irina Proxorenko, Tatyana Potmanseva, Vera Konisheva kabi ko'plab tajribali xodimlar yosh kadrlarga o'z bilim va tajribalarini o'rgatib kelmoqdalar. Mutaxassislar

В Узбекистане день за днем меняется облик городов и селений, которые становятся все краше и краше. Особенно неоценимый вклад в осуществление грандиозных созидательных работ в нашей стране, создании зеленых аллей и парков, в возведении небоскребов, дворцовых комплексов и современных зданий вносит ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ".

В частности, в Управлении по разработки градостроительной документации ведут свою деятельность 70 специалистов, а именно архитекторы по градостроительству, специалисты коммуникационных сетей, экономисты сферы градостроительства. Коллектив градостроителей на 70 % состоит из молодежи, а руководит предприятием опытный специалист Азиз Каримов. В управлении хорошо налажены традиции "Наставник-ученик". Архитекторы-приемники – Ш. Шоназаров, Е. Гогин, И. Хасанов, Б. Магдиев, Н. Комарова, Е. Соколова, Б. Абдуллаев, О. Юлдашева, А. Каримов, А. Лапасов, М. Спивак, инженеры

ishtirokida yiliga bir qancha O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida shaharsozlik rejalarini ishlab chiqilmoqda.

Jamoaning vazifasi O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi punktlarini loyihalashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining topshiriqlari asosida shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqishdan iborat. Shaharsozlik hujjatlari shaharsozlik normalari, sanitar normalar va barcha huquqiy talablar hamda manzilli dasturlar asosida belgilangan bo'lib, 20 yil muddatga mo'ljallangan holda ishlab chiqiladi. Mazkur hujjat aholi punktlarining strategik rivojlanishi, transport va kommunikatsiya, injener tarmoqlarining rivojlanish loyihasi hisoblanadi. Ushbu loyiha ishlab chiqilganidan so'ng, o'rnatilgan tartibda hukumat tomonidan tasdiqlanadi. Joylardagi hokimiyat va arxitektura bo'limiga topshirilgan ushbu hujjat aholi punktining strategik xaritasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda urbanizatsiya tufayli qishloqdan shaharga intilish ko'zda tutilgan holda, hududlardagi aholi punktlarini amaldagi me'yoriy talablar doirasida ishlab chiqish, ushbu loyihalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash, aholiga qulayliklar yaratish soha xodimlari izlanishlarining mazmuniga aylangan. Turkiya, Gollandiya, Koreya, Belarus, Rossiya davlatlari bilan shaharsozlik yo'nalishi bo'yicha hamkorlik qilinishi tufayli ularning tajribalari o'rganilib, o'zaro fikr almashinish yo'lga qo'yilgan. Chet el loyihalari va u yerdagi davlat tashkilotlari bilan xorijiy boy tajribalarni o'z loyihalarimizda qo'llashda "O'zshaharsozlik LITI" bosh loyiha instituti davlat muassasasi O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tashabbusi va hukumatimiz topshiriqlariga suyanib ish olib bormoqda. Shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish respublika va viloyat ahamiyatidagi aholi punktlari bo'lgani bois, davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi. Byudjet mablag'larini samarali, tejab ishlatish maqsadida maxsus yo'riqnoma asosida "Davlat shaharsozlik ishlab chiqish ekspertizasi"dan o'tkazilib, uning ijobiy xulosasidan so'ng manzilli dastur asosida moliyalashtirish ishlari amalga oshiriladi.

В. Конышева, Т. Потманцева, Ф. Абидов, Д. Кахрамонов, И. Рахматуллаева, в настоящее время являются наставниками для молодой талантливой молодежи.

Задача коллектива при проектировании населенных пунктов заключается в разработке градостроительной документации на основе распоряжений и поручений Президента и правительства Республики Узбекистан. Данные градостроительные документы составлены на основе градостроительных и санитарных норм, а также всех требований законодательства и целевых программ, и разрабатываются сроком на 20 лет. Эти документы представляют собой проекты стратегического развития населенных пунктов, транспорта и связи, развития инженерных сетей на этот срок.

В настоящее время, в связи с урбанизацией, учитывая тенденцию стремления к перемещению из села в город, основное внимание работников сферы направлено на разработку проектов областных населенных пунктов в рамках действующих нормативных требований, использование в этих проектах современных инновационных технологий, создание максимально больших удобств для населения. В связи с ускоренным развитием и требованиями времени, в данной сфере вступает в силу международное сотрудничество в области градостроительства. В частности, благодаря сотрудничеству в направлении градостроительства с такими странами, как Турция, Нидерланды, Республика Корея, Республика Беларусь, Россия был изучен их полезный опыт и налажен взаимный обмен мнениями. В деле применения богатого зарубежного опыта работы с зарубежными проектами и государственными организациями в наших проектах, ГУ "Узшахарсозлик ЛИТИ" основывается на инициативы Министерства строительства и жилищно-коммунального хозяйства Республики Узбекистан и поручений правительства страны. Необходимо подчеркнуть, что разработка градостроительной документации финансируется из государственного бюджета, поскольку это касается населенных пунктов республиканского и областного значения. В целях эффективного и экономичного использования бюджетных средств, на основе специального руководства проводится "Государственная градостроительная экспертиза", после положительного заключения которой осуществляется финансирование на основании адресной программы.

# Ustaxonalar

# Мастерские



Boshqarma tarkibida 10 ta ustaxona mavjud. **1-ustaxona** 1964-yilda tashkil etilgan bo'lib, Farg'ona, Surxondaryo va Sirdaryo, Toshkent hamda Andijon viloyatlarining qismiga mas'ullik qilgan. Ustaxonani uzoq yillar mobaynida boshqargan Nina Fokina viloyatlar shaharlarining bosh rejalari mas'uli bo'lib faoliyat ko'rsatgan. 1964-yildan boshlab ustaxona bosh arxitektori N. Fokina rahbarligida Farg'ona, Qo'qon, Termiz, Denov va Shirin shaharlarining bosh rejalari loyihalari ishlab chiqilgan. Ustaxonaning faoliyati mobaynida tajribali arxitektorlar – G. Kononova, A. Korchuganov, I. Jukovskiy, N. Mikota, I. Xasanov, E. Karateeva, V. Yulina, muhandislar – O. Shulepin, T. Potmanseva, V. Konisheva, V. Ganiyev, iqtisodchilar – T. Baskakova va T. Kramarenkolar faoliyat olib borganlar.

Ustaxonaga hozirgi kungacha I. Hasanov rahbarlik qilib kelmoqda. Uning rahbarligida ustaxona tomonidan ko'plab e'tiborga molik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, katta Farg'ona va Termiz shaharlarining texnik-iqtisodiy asoslari hamda Farg'ona, Qo'qon, Termiz, Denov, Marg'ilon, Quvasoy, Shirin, Yangiyo'l, Olmazor, Shahrixon, G'ijduvon va boshqa shaharlarning bosh rejalari ishlab chiqilgan. Mazkur shaharlarning aholi punktlari va markaziy ko'chalarini batafsil rejalashtirish loyihalari muvaffaqiyatli

**Мастерская № 1** была основана в 1964 году и курировала Ферганскую, Сурхандарьинскую и Сырдарьинскую области, а также частично Ташкентскую и Андижанскую области. Долгие годы мастерской руководила Нина Фокина, которая была ответственной за генеральные планы городов областей.

